

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI**



**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI**

Madaminov Shexnazarbek Ravshanbek o`g`lining

**5610300 – “Turizm (xalqaro va ichki turizm)”
ta`lim yo`nalishi bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**O`ZBEKISTONDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING
O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Ilmiy rahbar:

dots. Xudayberganov D.T.

Urganch 2019 yil

MINTAQADA TURIZM SALOHIYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI VA ISTIQBOLLARI

Mundarija		
KIRISH		3
I-BOB. TURIZM SALOHIYATINI OSHIRISHNING NAZARIY- USLUBIY ASOSLARI		
1.1.	Turizm salohiyati tushunchasi va uning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni	6
1.2.	Turizm salohiyatini amalga oshirish jihatlari va ko'rinishlari	13
1.3.	Xorijiy mamlakatlarda turizm salohiyatini rivojlantirish tajribalari	20
II-BOB. MINTAQADA TURIZM SALOHIYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI		
2.1.	Mintaqada turizm salohiyatini oshirishning hozirgi holati	31
2.2.	Mintaqada turizm salohiyatini oshirish yo'nalishlari va bosqichlari	41
2.3.	Mintaqada turizm salohiyatini oshirish samaradorligini oshirish istiqbollari	48
XULOSA VA TAKLIFLAR		56
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI		59

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohasini rivojlantirish, ishsizlikni bartaraf qilish, aholi daromadlari, yashash sharoitlarini oshirish va mamlakat eksportida xizmatlar rolini oshirishda muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan "2017-2021 yillarda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da Tarkibiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirishdagi asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash hamda turizm infratuzilmasini kengaytirish bo'lib qaralmoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan sohani yanada rivojlantirish maqsadida turli qarorlar va dasturlar ishlab chiqilgan. Bularga 1999 yil 20 avgustdagi O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi qonuni, 2016 yil 2 dekabrda PF-4861-sonli "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident farmoni, 2017 yil 4 maydagi PQ-2953 sonli "2017-2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi Prezident Qarorini kiritish mumkin.

Mamlakatimiz turizmini rivojlantirishda Xorazm viloyati mintaqasi va undagi Xiva shahrining o'ziga xosligi muhim o'rin tutadi. Bu esa mintaqaning turizm imkoniyatlarini kengaytirish hamda baholash asosida tashrif buyuruvchi turistlar sonini oshirishga alohida e'tibor qaratishni taqozo qiladi. Mavjud turizm ko'pincha qadimiy shaharlar va tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda. Vaholanki, mamlakatimizning betakror tabiati, milliy qo'riqxonalar, tog'li hududlarda turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud.¹

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr. Toshkent shahri. // www.president.uz

Mazkur imkoniyatlarni yuzaga chiqarish uchun Xorazm viloyati mintaqasida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat dasturlari hamda qarorlarning amaliyotga tadbiqu, turistik infratuzilmani shakllantirilganligi, turizm xizmatlari rivojlanish bosqichlari va tendensiyalari, viloyatga tashrif buyurayotgan ichki va tashqi turistlar soni, ularning mintaqadagi turistik xizmatlardan qoniqish darajasini hisobga olish lozim. Bu esa Xorazm viloyatining turistik salohiyatidan samarali foydalanish va uni yanada oshirish yo'nalishlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Natijada, kelajakda turizm industriyasi va infratuzilmasini yanada rivojlantirish, turistlar oqimini oshirish hamda turizmni aholi bandligi va daromadlarini oshirishdagi rolini kuchaytirishga erishiladi. Bularga turizm salohiyatini oshirish yo'nalishlari va istiqbollari orqali erishiladi. Mazkur masalalar tanlangan bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Xorijiy mamlakatlarda turizm salohiyatini oshirish masalalarini V.Senin, V.S.Bogolyubov, A.Durovich, M.Efremova, V.Kvartalnov, S.Julidov, S.Skobkin va E.II'ina kabilar o'rganishgan.

Respublikamizda turizm salohiyatini oshirish bo'yicha M.Pardayev, I.Tuxliyev, G'.Qudratov, A.Eshtayev, O.Xomidov, B.Turayev, D.Usmanova, N.Ibadullayev, R.Amriddinova, B.Safarov va M.Alimovalar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Bitiruv malakaviy ishi obyekt va predmeti. Bitiruv malakaviy ishi obyekt qilib Xorazm viloyati, predmeti qilib mintaqada turizm salohiyatini oshirish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar olindi.

Bitiruv malakaviy ishi maqsadi mintaqada turizm salohiyatini oshirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, **bitiruv malakaviy ishining vazifalari** quyidagilardan iborat:

- turizm salohiyati tushunchasi va uning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini ochib berish;
- turizm salohiyatini amalga oshirish jihatlari va ko'rinishlariga baho berish;
- xorijiy mamlakatlarda turizm salohiyatini rivojlantirish tajribalarini o'rganish va tahlil qilish;

- mintaqada turizm salohiyatini oshirishning hozirgi holatini ko'rsatib berish;
- mintaqada turizm salohiyatini oshirish yo'nalishlari va bosqichlarini izoh berish;
- mintaqada turizm salohiyatini oshirish samaradorligini oshirish istiqbollarini yoritib berish.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy-amaliy ahamiyati. Ushbu bitiruv malakaviy ishining ahamiyati shundaki, unda keltirilgan materiallardan mintaqada turizm salohiyatini oshirishda, shuningdek, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida "Turizm marketingi", "Turizm: nazariya va amaliyot", "Mintaqaviy turistik resurslar" va "Mintaqaviy turizm" kabi fanlarni o'qitishda keng foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy-uslubiy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari va asarlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, iqtisodiy adabiyotlar, internet saytlari va statistik ma'lumotlar, shuningdek mintaqada turizm salohiyatini oshirishga oid manbalar va materiallar xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishi tarkibi. Ushbu ish kirish, 2 ta bobdan iborat 6 ta paragraf, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismlaridan iborat.

Ishning I-bobi "Turizm salohiyatini oshirishning nazariy-uslubiy asoslari" deb nomlanib, unda turizm salohiyati tushunchasi va uning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, turizm salohiyatini amalga oshirish jihatlari va ko'rinishlari hamda xorijiy mamlakatlarda turizm salohiyatini rivojlantirish tajribalari yoritilgan.

Ishning II-bobi "Mintaqada turizm salohiyatini oshirish yo'nalishlari va xususiyatlari" deb nomlanib, unda mintaqada turizm salohiyatini oshirishning hozirgi holati, mintaqada turizm salohiyatini oshirish yo'nalishlari va bosqichlari hamda mintaqada turizm salohiyatini oshirish samaradorligini oshirish istiqbollari keltirilgan.

I-BOB. TURIZM SALOHIYATINI OSHIRISHNING NAZARIY- USLUBIY ASOSLARI

1.1. Turizm salohiyati tushunchasi va uning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni

Hozirgi iqtisodiy islohotlar jarayonida turizm sohasining rivojlanishi bozor iqtisodiyotining shakllanishida katta ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida turizmning ulushini oshirish maqsadida tegishli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, respublikada turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qator qonunlar va me'yoriy hujjatlar xizmat qiladi. Mazkur masalaning ijobiy hal bo'lishida "2006-2010 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasi va servisni jadal rivojlantirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori va boshqa me'yoriy hujjatlar asosiy dastur bo'lib hisoblanadi. Hamda bugungi kunda turizm sohasining umumiy rivojlanishi va raqobatbardosh turistik mahsulot yaratish maqsadida, tarmoqda zaruriy islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Chunki, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va aholi farovonligini oshirish sharoitida turizm sohasini keng rivojlantirish alohida o'rin tutadi.

Turizm sohasi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotining kuchli "katalizatori" bo'lib, chet el valyutasi va sarmoyalar oqimini ta'minlaydi, unga yaqin bo'lgan sohalarning tez o'sishiga ko'mak beradi, aholi bandligi muammolarini hal etishda yordam beradi va mamlakatning dunyo hamjamiyatidagi obro'sini oshiradi. Boshqa sohalar bilan qiyoslaganda ancha kam sarf-xarajat bilan turizm sohasida katta valyuta miqdori kelib tushishini ta'minlash mumkin.

Ko'pgina mamlakatlarda turizm uchta yetakchi sohalar qatoriga kiradi, tez sur'atlarda rivojlanadi va muhim ijtimoiy hamda iqtisodiy ahamiyatga ega bo'ladi, chunki turizm quyidagi jihatlarga ega bo'ladi:

- mahalliy daromadni o'stiradi;
- yangi ish o'rinlarini yaratadi;
- turistik xizmatlar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha sohalarni rivojlantiradi;


- sayyohlik markazlarida ijtimoiy va ishlab chiqarish infrastrukturasi rivojlantiradi;

- xalq hunarmandchilik markazlari faoliyatining rivojlanishini tezlashtiradi;

- mahalliy aholi yashash darajasining o'rishini ta'minlaydi;

- valyuta tushumlari miqdorining o'rishiga yordam beradi.

Turizm boshqa sohalarga nisbatan tez taraqqiy etadigan tarmoq sanaladi. Chunki, bu soha mamlakatimiz uchun unchalik katta investitsiyani talab qilmasdan rivojlanishi mumkin bo'lgan soha bo'lsa-da, boshqa sohalar, jumladan havo, temir yo'l, avtomobil transporti, ovqatlanish va savdo shoxobchalari, mehmonxonalar rivoj topsa o'sha joyda turistik obyektlar mavjud bo'lsa bimalol turizmni rivojlantirish mumkin bo'ladi (1.1.1-rasm).



1.1.1-rasm. Turizm sohasining ko'p qirrali bog'liqliklari²

² Manba: David Weaver (Author), Laura Lawton. Tourism Management/ 1th ed. USA, Willey 2013.

Ma'lumki, turizm sohasining rivoji mamlakat yalpi ichki mahsulotining hajmi ortishi, aholi bandligini ta'minlash va daromadlarining o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu borada xizmatlar sohasi keyingi yillarda noishlab chiqarish sohasining ijtimoiy mehnat taqsimotida yirik tarmoqqa aylanib bormoqda. Ya'ni, 90-yillarning ikkinchi yarmidan ba'zi mamlakatlarda ishga yaroqli umumiy aholining o'rtacha 71 foizidan ortig'i noishlab chiqarish sohasida faol ishtirok etmoqda hamda shu orqali mamlakat iqtisodiyoti va aholi turmush farovonligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Chunki, xizmatlar sohasining muhim ulushi turizm sohasiga to'g'ri keladi.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mamlakatimizda turizm sohasining bosqichma-bosqich rivojlanishi ta'minlanmoqda. Xususan, 2016 yilda mamlakatimizda 2002,6 mlrd. so'mlik turistik xizmatlar ko'rsatilgan bo'lib, sohaning YaIMdagi ulushi 1 foizni tashkil qildi. Bundan tashqari, sohaning aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirishdagi ahamiyatiga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, 2016 yil 140 ming nafar kishi bandligi ta'minlangan bo'lib, iqtisodiyotda ish bilan bandlarning 0.8 foizini tashkil qilgan.³ Hamda hozirgi kunda dunyo bo'yicha turizm sohasida 195 mln.dan ziyod kishi, ya'ni dunyodagi jami band aholining qariyb 8 foizi ishlaydi. Bu esa yangi ish o'rinlari yaratish borasida turizm imkoniyatlarining yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Turizm sohasi aholi bandligini ta'minlash, ayni paytda mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim manbasiga aylanmoqda. Shu bilan birga, mamlakatimizda mehmonxona xo'jaligi yanada taraqqiy etib, 500 dan ortiq turli mulkchilik shaklidagi mehmonxona va joylashtirish obyektlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ayniqsa, keyingi besh yillikda 200 tadan ortiq xususiy mehmonxonalar ishga tushgan. Chunki, mamlakatimizda sayyohlar oqimining asosiy qismi turistik markazlar va turizm infratuzilmasi obyektlari yuqori bo'lgan Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlariga to'g'ri kelmoqda. Shu bois, respublikamiz mintaqalarida turizmni rivojlantirish imkoniyatlari ichki turizmni rivojlantirish sohasida rejalashtirish va marketing masalalariga tizimli yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

³ www.wttc.org

Avvalo, turizm sohasi bugungi kunning eng muhim ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy “fenomeni” sifatida jahon iqtisodiyotidagi eng serdaromad sohalardan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotning ushbu sektorida umumiy daromad hajmi trillionlab dollarni tashkil etmoqda va har yili butun dunyoda 1 mlrd. nafardan ortiq kishi sayohat qilmoqda.⁴

O'zbekiston turizmining rivojlanishi bevosita “Buyuk Ipak yo'li” bilan bevosita bog'liq bo'lib, “Buyuk Ipak yo'li”ning tutgan o'rni va mohiyati nihoyatda cheksiz ahamiyatga ega. Bir necha asrlar davomida yer yuzining G'arb va Sharqida istiqomat qilgan xalqlarni Janubiy-Sharqiy Osiyodan O'rta yer dengizi mamlakatlarigacha cho'zilgan va “Buyuk Ipak yo'li” deb nom olgan savdo-sotiq yo'li bir-biri bilan qo'shilib turgan. Bu yo'lga “Ipak yo'li” deb nom berilishining asosiy sababi shu erdan tashiladigan mahsulotlarning ipak bo'lganligidir.

Ipak tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan sirni Xitoy ustalari ming yillar davomida kishilardan yashirib kelganlar. Ammo “Buyuk Ipak yo'li” orqali tashilgan mahsulotlar ipakdan iborat bo'lmay, balki bu yo'l orqali bronza, chinni, jun, xom ashyolar va ulardan tayyorlangan buyumlar ham tashilgan. Chunonchi, “Buyuk Ipak yo'li” qariyb ikki ming yillik tarixga ega. Bu yo'l asosan Italiyadan Turkiya orqali Iroq va Eronga borgan. U erdan esa Markaziy Osiyo hamda Shimoliy Pomir orqali Qashqar va Yorkentgacha borib, bu erda yo'l ikkiga ajralgan hamda shimol tomondan Takla-Makon sahrosini aylanib o'tib, Lobnor ko'li yaqinida yana qo'shilgan va Xitoyga ketgan.⁵

Shuningdek, hozirgi kunga kelib, qadimdan yuksak madaniyati va ilm-fani, me'moriy obidalari bilan ko'pchilikni hayratga solib kelgan shaharlarimiz zamonaviy sayyohlik markaziga aylandi. Bu vazifalarni amalga oshirish bevosita sayyohlikning rivoji bilan bog'liq bo'lib, ushbu soha iqtisodiyot tarmoqlarining rivoji, xorijiy valyutalarni keng jalb qilish, qo'shimcha ish o'rinlarini yaratish va xalqaro aloqalarni

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Vazirlar Mahkamasining “Mamlakatimizni 2016 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini har tomonlama tahlil qilish hamda respublika hukumatining 2017 yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy dasturining eng muhim yo'nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilashga bag'ishlangan kengaytirilgan majlisi”dagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2017 yil 16 yanvar.

⁵ Курс лекций по предмету: Инвестиционная политика в международном туризме (Курс подготовили: Г.Г.Назарова и другие). - Т., 2000.

mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Bu borada O'zbekistonda turizm sohasini jadal rivojlantirish uchun investitsiyalarni keng jalb qilish, sohaga innovatsion g'oya va texnologiyalarni keng joriy etish hamda mamlakatning boy tabiiy, madaniy va tarixiy merosi, resurslari va imkoniyatlaridan har tomonlama foydalanish lozim. Shuning uchun ham, mamlakatda keng rivojlanayotgan turizm va sayyohlik sohasi kelajakda yuqori taraqqiyotga erishish omili bo'lib hisoblanadi. Chunki, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishishning muhim yo'llaridan biri mamlakatimizning turistik salohiyatidan samarali foydalanishiga ham bevosita bog'liq.⁶

Turizm salohiyati tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat va mazmunga ega bo'lib, u bevosita turizm sohasining imkoniyatlaridan kelajakda samarali foydalanish natijasi bilan belgilanadi. Turizm salohiyati iqtisodiy kategoriya sifatida turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Avvalo, "salohiyat" tushunchasining turli xil talqinlarini ko'rib chiqqan holda, innovatsion salohiyat ta'rifi quyidagicha izohlanadi. Ya'ni, "salohiyat" tushunchasi lotincha "potential" so'zidan kelib chiqib, "imkoniyat, kuch va qudrat" degan ma'nolarni bildiradi. Biroq, yirik iqtisodiy lug'atda "salohiyat" tushunchasi "mavjud vositalar majmui", "har qanday sohadagi imkoniyatlar" va "mavjud manbalar, vosita va zahira" sifatida ta'riflanadi.

Darhaqiqat, "salohiyat" tushunchasining yuqorida keltirilgan talqinlarning umumiy jihati sifatida muayyan maqsadlarga erishishda talab qilinadigan va zarur bo'lgan ba'zi vositalar majmui hamda nimanidir amalga oshirilishida qandaydir imkoniyatlarning mavjudligidan tashkil topgan bo'ladi. Biroq, mintaqaning ekoturizm tarmog'i uchun salohiyat ham mavjud bo'lib, bu tabiatni muhofaza qilish, ekoturistlarni ona tabiatga keng jalb etish, noyob o'simliklar va hayvonot dunyosini saqlash va ko'paytirish muammolarini hal qilish, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitni yanada yaxshilash hamda aholini yangi ish joylari bilan ta'minlash kabi vazifalarni bajaradi.

Turizm salohiyatini oshirish maqsadida sohani kelajakda rivojlantirish masalasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'ruzalarida o'z aksini topgan bo'lib, ma'ruzalarda hududlarni kompleks va intensiv ravishda rivojlantirish borasida qabul

⁶ Professorlar. M.Q.Pardayev va X.N.Musayevlar tahriri ostida. Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. - T., 2008. - 87 b.

qilingan yangi maqsadli dasturlarni amalga oshirish bo'yicha muhim vazifa va choralarni belgilab berilgan.⁷ Darhaqiqat, hududlarni kompleks rivojlantirish borasida yangi maqsadli dasturlar ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilindi.

Chunki, respublikamizda turizm sohasi yaxshi rivojlangan Xorazm viloyati bu borada ulkan salohiyat va turistik imkoniyatlarga ega hudud hisoblanadi. Olib borilgan samarali va izchil islohotlar tufayli turizm sanoatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, viloyatning go'zal tabiati, muqaddas qadamjolari, noyob me'moriy obidalarini hamda fayzli go'shalari dunyo ahlini tobora o'ziga maftun etmoqda. Natijada, mintaqaviy turizm rivojlanib, buni amalga oshirish uchun xizmatlar sohasini rivojlanishiga bir qator omil va jarayonlar ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan Qaror asosida 2017 yilning 4 mayda 2017-2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish Dasturi qabul qilindi.⁸ Mazkur hujjatning qabul qilinishi Xorazm viloyati hududida turizmni kelajakda barqaror rivojlantirish va turizm salohiyatini oshirish asosida ushbu sohaning hududlarni rivojlanishiga bo'lgan ta'sirini kuchaytirishdan iborat bo'ldi.

Avvalo, mazkur imkoniyatlarni to'liq yuzaga chiqarish uchun turizm salohiyatini oshirish lozim. Shu boisdan ham, turizm sohasini respublikamizning hududlarda rivojlantirish asosida turizm salohiyatini oshirishning huquqiy asoslari ta'minlanmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan Farmon asosida investitsiyalarni keng jalb qilish, innovatsion g'oya va texnologiyalarni joriy etish hamda mamlakatning boy tabiiy, madaniy-tarixiy merosining resurslari va imkoniyatlaridan samarali foydalanish hisobiga turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi.⁹

Ularga asosan, 2018 yil 10 fevraldan boshlab, Isroil, Indoneziya, Koreya, Malayziya, Singapur, Turkiya va Yaponiya fuqarolari hamda O'zbekistonga

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 4 maydagi PQ-2953 sonli "2017-2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish Dasturi to'g'risida"gi Qarori.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi PF-5326-sonli "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 fevraldagi PQ-3509-sonli "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

muntazam aviaqatnovlarni amalga oshiruvchi xorijiy aviakompaniyalar havo kemalari ekipajining a'zolari uchun O'zbekiston Respublikasi hududiga kirgan kundan e'tiboran 30 kunlik muddatga vizasiz rejim tartibi belgilandi hamda boshqa 39 ta davlatlarning fuqarolari uchun turizm vizalarini rasmiylashtirishning soddalashtirilgan tartibi joriy qilindi. Bevosita mazkur mamlakatlardan Xorazm viloyatida katta miqdorda turistlar tashrif buyurib, turizm salohiyatini oshirishda muhim o'rinlarni egallamoqda.

Shuningdek, turizmdagi rasmiyatchiliklarni yanada soddalashtirish va turizm salohiyatini oshirishga xizmat qilish maqsadida 2018 yilning 1 mayidan boshlab, O'zbekistonda tranzit bo'yicha harakatlanayotgan chet ellik yo'lovchilarga 72 soatlik kirish vizalari berish joriy etildi.

Mazkur imkoniyatning yuzaga chiqishi ham turizm salohiyatini oshirishga qaratilgan yo'nalish bo'lib, unga asosan turizm dasturlari bo'yicha tanishuv turlari uchun turistlarning aeroport chegara hududidan tashqariga qisqa muddatli nazorat qilinadigan holda chiqish tartibi belgilandi. Mazkur holda yo'lovchilarda uchinchi mamlakatga aviachipta va vizasi bo'lishi hamda konsullik yig'imlarini to'lashi lozim bo'ladi.

Quyi Amudaryo mintaqasi Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatidan tarkib topgan. Biroq, Xorazm viloyati "kichik mintaq" sifatida turizmga ixtisoslashgan alohida hudud hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston mintaqalaraning (Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasining katta qismi) o'ziga xos madaniy va mahalliy xususiyatlarga ega ekanligini hisobga olib, bu hududga turizmni samarali rivojlantirish kerak hamda "turistik mintaq" deb qarash to'g'ri bo'ladi.¹⁰

Turistik mintaq o'zining boy turistik resurslariga ega bo'ladi va ulardan samarali foydalanadilar, bular bevosita kelajakda turizm salohiyatini oshirishga katta xizmat qiladi. Xorazm viloyati turistik hududida turistik resurslardan hozirgi kunda 208 ta madaniy meros obyektlari, shu jumladan 20 ta arxeologik, 124 ta tarixiy-

¹⁰ Hayitboyev R., Matyaqubov U. Ekologik turizm. Uslubiy qo'llanma. - Samarqand: SamISI, - 2010. - 60 b.

me'morchilik yodgorliklari, 7 ta ansambl, 28 ta diqqatga sazovor joylar va ziyoratgohlar ro'yxatga olingan.¹¹

Shunday qilib, turizm salohiyatini ommaga ko'rsatish va yanada rivojlantirishga qaratilgan turizm sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishi iqtisodiyotning daromadli tarmog'iga aylantirish, turizm sohasida huquqiy va normativ bazasi shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Ulardan tashqari, turizm salohiyatidan maqsadli va samarali foydalanish uchun ichki va xalqaro turizmni rivojlantirish talab qilinadi. Ularning ichidan xalqaro turizm muhimi bo'lib, muntazam va aniq bir maqsadga qaratilgan korxonalarining turizm sohasidagi faoliyati bilan bog'liq holda biron-bir mamlakat hududida turistik xizmatlar va turistik mahsulotlarni biron-bir mamlakatda doimo yashaydigan sayohat qiluvchi shaxslarga taqdim etishdir.¹²

Umuman olganda, turizm salohiyatidan samarali foydalanish mintaqada kelajakda tashkil etiladigan yangi turizmning zamonaviy turlari asosida amalga oshiriladi. Xususan, yaqin yillar davomida viloyat hududida madaniy-tarixiy, arxeologik, ekologik, ziyorat, gastronomik, yoshlar, madaniy-ko'ngilochar, sport, biznes, safar, agro, oilaviy, sarguzasht, ekstremal, bolalar va qishloq turizmi kabi turlar tashkil etiladi va mutassil rivojlanadi.¹³ Mazkur imkoniyatlar o'z navbatida turizm salohiyati tushunchasiga yangicha qarashni va uning ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini ochib beradi.

1.2. Turizm salohiyatini amalga oshirish jihatlari va ko'rinishlari

Turizm salohiyatining muhim bir ko'rinishi iqtisodiy salohiyat resurslardan optimal foydalanilib, ideal ishlab chiqarish sharoitlarida erishiladigan tovar va xizmatlarning mumkin bo'lgan eng yuqori hajmda ishlab chiqarilishini oldindan belgilaydigan xo'jalik tizimining maksimal imkoniyatlari orqali belgilanadi. Bu salohiyat iqtisodiy salohiyatning eng muhim qismlaridan biri sanaladi va ilmiy

¹¹ Rўzmetov Б., Матякубов У., Худойберганов Д. Хоразм вилоятида туризмни ривожлантириш истикболлари. В сб: "Актуальные проблемы туризма -2009" Сборник научных трудов. Выпуск №1. -Т.: «ДП Патент -Пресс», 2009. - 138 с.

¹² Mamatqulov X.M., Bektemirov A.B., Norchayev A.N. Xalqaro turizm. Darslik. – T., 2009. - 9 b.

¹³ Manba: O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasi ma'lumotlari. // www.uzbektourism.uz

adabiyotlarda innovatsion salohiyat tushunchasi keng tarqalgan ilmiy-texnik salohiyat tushunchasi bilan ham bir qatorda qo'llaniladi.

Ya'ni, keng ma'noda ilmiy-texnik salohiyat, ushbu tizimning rivojlanish darajasini, resurslarning sifat va soniga bog'liq holda tavsiflaydigan, ushbu imkoniyatlardan amaliyotda foydalanilishga mo'ljallangan g'oya va ishlanmalar jamg'armasining mavjudligi, iqtisodiy tizimining ilmiy-texnik imkoniyatlari majmui sifatida belgilanadi.

Shuningdek, ilmiy-texnik salohiyat ham mavjud bo'lib, bu bir tomondan davlatning fan-texnika taraqqiyotining yutuqlaridan obyektiv foydalanish real imkoniyatlari, boshqa tomondan esa - unda bevosita ishtirok etishi orqali tavsiflanadi. Demak, ilmiy salohiyat tushunchasi ilmiy-texnik salohiyat tushunchasi bilan uzviy bog'liq.

Ilmiy salohiyat - ilmiy-fundamental va fundamental tadqiqotlarga amalga oshirishga yo'naltirilgan resurslar va sharoitlar majmuidir. Ilmiy-texnik salohiyat - o'zida tajriba konstruktorlik va texnik ishlarni qamrab oluvchi amaliy tadqiqot ishlarini amalga oshirish sharoitlari va resurslari majmui sanaladi.

Mazkur ilmiy, ilmiy-texnik va innovatsion salohiyatlar yagona innovatsion tsiklning o'zaro bog'liq va bir-birlarini to'ldiruvchi tarkibiy qismlari hisoblanadi. Shu bilan birga, salohiyat obyekt nuqtai nazaridan quyidagi turlarga bo'linadi:

- bozor salohiyati – mahsulotga doimiy talab va korxonaga egallab olgan bozor ulushi, korxonaga mahsulotiga doimiy talab hajmi, korxonaga va mehnat bozori, korxonaga va ishlab chiqarish omillari bozori;

- ishlab chiqarish salohiyati – ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan mahsulot hajmi, asosiy vositalardan foydalanish imkoniyatlari, xom ashyo va materiallardan foydalanish imkoniyatlari;

- moliyaviy salohiyat – ishlab chiqarishda erishish mumkin bo'lgan moliyaviy ko'rsatkichlar va investitsiya imkoniyatlari;

- kadrlar salohiyati - malakali kadrlardan foydalanish imkoniyatlari; korxonaning zarur malaka va miqdorda xodimlar bilan ta'minlanganligi.

Shunga asosan, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish sharoitida mamlakatimiz turizm salohiyatini oshirish, turizm industriyasini rivojlantirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, hududlarning turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish uchun mintaqada turizm salohiyatini oshirishni taqozo qiladi. Buning uchun quyidagi yo'nalishlardagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- Xorazm viloyatida turizmni rivojlanishi bo'yicha dastlabki statistik ma'lumotlarni yig'ish;

- mintaqada turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan davlat dasturlari hamda qarorlarning amaliyotga tadbiri darajasini baholash;

- turistik infratuzilmani shakllanganligining mavjud holatini o'rganish va xorijiy davlatlar bilan qiyosiy tahlilini amalga oshirish.

Turizm sohasining salohiyati keng qamrovli tushuncha bo'lib, undan foydalanish bevosita turizm turlaridan samarali foydalanish va samaradorligini yanada oshirishning muhim omili hisoblanadi. Shu bilan birga, bozor iqtisodiyoti sharoitida turizm sohasining salohiyatini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlardagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- turistik salohiyatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan asosiy vositalar tarkibini sifat jihatidan yaxshilash va sifatli bo'lishga ta'sir qiluvchi omillarni hisobga olish;


- turistik salohiyatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib hisoblangan aylanma mablag'larga tegishli bo'lgan masalalarni ijobiy jihatdan hal qilish va uning aylanishini tezkor ta'minlash;

- turistik salohiyatining tarkibida nomoddiy aktivlar bilan bog'liq bo'lgan masalalarni yaxshilash yo'llarini takomillashtirish hamda optimal qarorlar qabul qilish;

- turistik salohiyatni ta'minlashda muhim o'rin tutadigan mehnat salohiyatidan samarali foydalanish va uni ish o'rinlariga nisbatan to'g'ri mutanosiblikda taqsimlash.

Umuman olganda, bozor munosabatlari hisobga olgan holda turizm salohiyatini oshirish uchun cheklangan resurslardan samarali va intensiv foydalanish orqali ijobiy natijaga erishish mumkin. Bu esa xizmat ko'rsatish tizimini yaxshilashning asosiy yo'li sanaladi. Ya'ni, bu choralar turizmni boshqarish mexanizmini yaratish jarayoni bo'lib hisoblanadi. Natijada, turizm salohiyatini jadallashtirish va uning samaradorligini oshirishga erishiladi.

Turizm salohiyati bir qator turlarga ajratiladi va quyidagi muhim jihatlarga egaligi bilan ajralib turadi (1.2.1-rasm).



1.2.1-rasm. Turizm sohasida salohiyat va uning turlari¹⁴

Rasmga asosan, turizm sohasidagi salohiyat va uning turlari keltirilgan bo'lib, bu o'z navbatida turizm salohiyatning turli ko'rinishlaridan foydalanish asosida bajariladi. Rasmda keltirilgan turizm salohiyatining turlari quyidagicha o'ziga xos ma'no va ahamiyat kasb qiladi.

¹⁴ Manba: www.ziyonet.uz

- turistik texnika-texnologik salohiyat. Bu turizm sohasini rivojlantirishda yangi texnika va texnologiyalarni jalb qilish hisobiga turistik faoliyatni amalga oshirishga xizmat qiladi.

- turistik mehnat salohiyati. Mazkur turizm sohasida aholini ish bilan ta'minlash asosida xodimlar tomonidan turistik xizmatlar ko'rsatilishini namoyon qiladi.

- turistik ilmiy-ma'rifiy salohiyat. Bu turizm sohasida kadrlar tayyorlash va turistlar, turistik subyektlarning ma'naviy va ma'rifiy sohalardagi bilimlarini oshirish ta'minlanadi.

- turistik tabiiy salohiyat. Bu salohiyat turistik resursning turi bo'lgan tabiiy resurslardan turistlarni hududga jalb qilish va ulardan samarali foydalanishni aks ettiradi.

Ana shularni hisobga olgan holda, turizm salohiyatidan foydalanishni amalga oshirish davlat tomonidan ta'minlanadi. Bu borada davlat siyosati ishlab chiqilgan va uning asosiy yo'nalishlari ham qabul qilingan. Ya'ni, davlatning o'rnini muhim ahamiyatga ega bo'lib, turizm salohiyatidan foydalanish quyidagi funktsiyalar orqali tartibga solinadi:

- turistik faoliyatni tashkil etish va tartibga solishning me'yoriy-huquqiy bazasini yaratish;

- turizmni rivojlantirish istiqbollari belgilash;

- turistik faoliyat turlarini optimal tartibga solish;

- turizm sohasida xavfsizlikni ta'minlash;

- turistik kadrlar ta'minotini amalga oshirish;

- turizm bozorining ilmiy jihatdan tadqiq etish va amalga oshirilishini ta'minlash;

- turistik firmalarning tashqi iqtisodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

- atrof-muhit muhofazasi va tarixiy yodgorliklarni saqlash;

- mintaqaning mustahkam imidjini yaratish;

- hisobot yuritish va nazorat funktsiyalarini to'liq amalga oshirish.

Mazkur jihatlar bilan ajralib turuvchi turistik salohiyatdan to'liq foydalanish uchun turli ommaviy va ko'ngilochar tadbirlarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu vazifa quyidagi keltirilgan yo'llar orqali ta'minlanadi:



1.2.2-rasm. Turistik salohiyatni yuzaga chiqarish va namoyish etish yo'nalishlari¹⁵

Mazkur vazifalar bugungi kunda to'liq bajarilib kelmoqda. Biroq, respublika mintaqalarida keltirilgan ushbu vazifalarning bajarilish ijrosini ta'minlash va amalga oshirilishini yanada takomillashtirish va muvofiqlashtirib borish lozim.

Yuqoridagi omil va mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqib, Xorazm viloyati mintaqasining turizm salohiyati kelajakda sohasi keng taraqqiy qilishini ta'minlaydi. Jumladan, kelajakda har bir mintaqa sharoiti va miqyosida turizm salohiyatidan samarali foydalanish quyidagi yo'nalishlarga ega:

- Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm infratuzilmasini talab darajasida rivojlantirish;

¹⁵ www.uzbektourism.uz

- mavjud turizm yo'nalishlari va xizmatlarini yanada takomillashtirish;
- hududning turizm salohiyatini keng targ'ib qilish va ularni sifatli reklamalarni ko'rsatish asosida bajarilishini ta'minlash;
- turistlar uchun yondash bo'lgan infratuzilma obyektlari holatini doimiy ravishda yaxshilashga erishish;
- yuqori naf keltiradigan turistik marshrutlarni tanlashda turistik resurslardan samarali foydalanish;
- turizmning yangi turlarini kelajakda amalga oshirish imkoniyatlarini aniqlash.

Shular bilan birga, Xorazm viloyatida o'z faoliyatlarini olib borayotgan 21 ta turistik firmalardan 7 tasi tomonidan respublikamiz hududlari bo'ylab sayohatlarni tashkil etish hududlari tanlangan. Bu hududlarni o'rganish, u yerga turistlarni olib borish natijasida kelajakda viloyatda turistlar oqimini oshirishga erishiladi.

Mazkur hududlarning turizm salohiyati yuqori bo'lib, turistlarni bevosita jalb qila oladi va ushbu imkoniyatlarni amalga oshirishga erishiladi. Chunki, ularning maqsadi Xorazm viloyatida turizm salohiyatini oshirish orqali turizm sohasini barqaror rivojlantirish va yuqori foyda olishga erishish hisoblanadi (1.2.1-jadval).

1.2.1-jadval

Turistik firmalarning turizm salohiyatini oshirishda sayohatlarni tashkil etish hududlari¹⁶

№	Turfirmalarning nomi	Tanlangan hududlar
1	“Mitra travel” MChJ	Toshkent shahar va Qashqadaryo viloyati
2	“Zukhro travel” MChJ	Buxoro, Navoiy, Samarqand, Jizzax, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahri
3	“Golden ring travel” MChJ	Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlari
4	“Xiva gold tur” MChJ	Samarqand viloyati
5	“Expert navigator” MChJ	Toshkent shahri va Andijon viloyati
6	“Xorazm ko'hi nur” MChJ	Navoiy va Toshkent viloyatlari
7	“Atlas travel agency”	Samarqand va Surxondaryo viloyatlari

¹⁶ Xorazm viloyati turizmni rivojlantirish departamentining ma'lumotlari

MChJ	
------	--

Yuqoridagilardan tashqari, Xorazm viloyatida kelajakda turizm salohiyatni oshirish maqsadida turfirmalar, shuningdek xorijiy mamlakatlar bilan o'quv va ilmiy faoliyat sohasidagi hamkorlik yaxshi yo'lga qo'yilib, tadqiqotchi olimlar tomonidan o'zbek, rus va ingliz tillarida xalqaro loyihalar tayyorlandi va xorijiy mamlakat ekspertlariga taqdim qilindi. Barcha keltirilgan ishlar o'z navbatida turizm salohiyatining ko'rinishlarini to'liq yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

1.3.Xorijiy mamlakatlarda turizm salohiyatini rivojlantirish tajribalari

Xorijiy mamlakatlarda turizm salohiyatini rivojlantirish bo'yicha etarli tajribalar to'plangan. Chunki, har bir mintaqada to'plangan tajribalar tahlil qilinishi va turizm sohasini rivojlantirishda keng qo'llanilishi lozim. Xorazm mintaqasi boy tarixiy-madaniy salohiyatga ega bo'lib, uning ochiq osmon ostidagi tarixi qariyb 3000 yilga borib taqaluvchi 300 dan ortiq tarixiy-madaniy obidalari mavjud. Bundan tashqari, tabiiy boyliklar ko'p bo'lmasada, o'ziga xos tabiiy-iqlimiy sharoitlari yilning muayyan bir davrida turistik mavsum bo'lishini doimiy ravishda ta'minlaydi. Shu bilan birga, ekoturistik salohiyatdan, tibbiy turizm, cho'l turizmi, ot va tuyalarda sayr qilish, ov turizmi, agroturizm salohiyatidan optimal foydalanish mumkin. Chunki, o'zining qadimiy obidalari, muqaddas ziyoratgohlari, xushmanzara tabiati va fayzli go'shalari bilan sayyohlarni o'ziga rom etayotgan va sayyohlik ko'lami va tarixiy joylar ko'pligi bo'yicha dunyodagi etakchi 10 ta mamlakat qatorida turuvchi mamlakatimiz uchun yuqoridagi ko'rsatkichlar qoniqarli emasligi aniq.¹⁷

Xorijiy mamlakatlarda turizm salohiyatini rivojlantirish infratuzilma sohalarining taraqqiy qilishi bilan bog'liq. Chunki, turizm sohasining rivojlanishida infratuzilma muhim o'rin tutadi va omil va yirik bo'g'in sifatida ishtirok qiladi. Avvalo, turizm infratuzilmasi XIX asrning oxirida hozirgi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida shakllangan. Bu kunga kelib, ushbu infratuzilma jahonning uchinchi ko'p daromad keltirayotgan sohasiga aylandi va uni o'rganish davrning taqozosidir.

¹⁷ http://uza.uz/oz/tourism/dam-olish-dunesi-khalaro-saielik-krqazmasi-18.04.2013-26273?ELEMENT_CODE=dam-olish-dunesi-khalaro-saielik-krqazmasi-18.04.2013-26273&SECTION_CODE=tourism&print=Y

Ammo, bugungi kunda turizm industriyasi dinamik ravishda rivojlanayotgan xizmatlar xalqaro savdosinig turi ham bo'lib kelmoqda.

Turizm infratuzilmasi turizm tarmog'ida bo'ladigan munosabatlar va hodisalarning yig'indisi va yaxlitligi hisoblanadi. Turizm tashqi muhit bilan o'zaro aloqa qiluvchi turizm tashkilotlari va hududlarini o'z ichiga oluvchi munosabatlar tizimidir. Turizm infratuzilmasi tarkibiga turizm tashkilotlari, turistlarga ko'rsatiladigan joylar, mehmonxonalar, ovqatlanish tarmoqlari, transport, yo'llar va turizm bo'yicha mutaxassislar kiradi hamda turizm salohiyatini oshirish omili bo'lib hisoblanadi.

Turizm infratuzilmasining taraqqiyoti turizmning yangi va ko'p tarqalgan turi bo'lgan ekoturizm bilan bog'liq. Ekoturizmni tashkil etish uchun infratuzilma tarmoqlari va obyektlari yangidan ta'mirlanadi. Shu boisdan ham, turistik salohiyatning bir ko'rinishi bo'lgan ekoturizmni rivojlantirish borasida Misr va Turkiya davlatlarida katta tajribalar to'plangan.

Ma'lumki, keyingi 20 yil davomida turizm sanoati daromadi va turistlar soni bo'yicha ham barqaror o'sishga erishib, dunyoning deyarli barcha mintaqalarida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik ahamiyat kasb etmoqda. Jahonda xalqaro turizm rivojlanishida hali ham Yevropa Ittifoqi, Amerikaning sanoati rivojlangan davlatlari peshqadamlik qilgani holda Sharqiy Osiyo va Tinch Okeani hududida, Janubiy Osiyo, Afrika va Yaqin Sharqda bir necha turistik yo'nalishlarning o'sish sur'ati juda tez va bu hududlardagi bir necha davlatlarda esa juda yuqori hisoblanadi. Islom Hamkorlik Tashkiloti davlatlarining jahon turizm bozoridagi ulushi 9,4 foizni tashkil qilsa-da, ko'p davlatlar mavjud turistik salohiyatidan kam foydalanilmoqda. Ushbu tashkilotga a'zo davlatlardan Malayziya, Turkiya, Misr, Tunis, Indoneziya, Marokash nisbatan turistik faolligi yuqori davlatlardir.

O'zbekistonda ham turizm sektorini rivojlantirish va iqtisodiyotning strategik sohasiga aylantirish mamlakat va mintaqalar uchun eng yuqori ustuvor dolzarb masalalardan sanaladi. Ayniqsa, ekoturizmni rivojlantirishda ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ulardan respublikamiz sharoitida samarali foydalanish zarur. Shu

sababli, dini, madaniyati va iqlim sharoiti yaqin bo'lgan Misr va Turkiyaning ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha tajribalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Misr Arab Respublikasi – Arab davlatlari orasida etakchi, tarixi va madaniyati juda boy bo'lgan noyob davlatdir. Afrika qit'asidagi aholi soni bo'yicha eng katta davlat hisoblanadi. Misr Afrikaning shimoliy-sharqiy qismi va qisman Osiyoda joylashgan davlatdir. Davlat Isroil, Falastin, Sudan va Liviya davlatlari bilan chegaradosh. Misr shimolida O'rta Er dengizi va sharqida Qizil dengiz joylashgan. Aholisi Nil daryosining bo'yida istiqomat qiladi va er maydonining 95 foizdan ortiq qismi sahrodan iborat.

Shunday og'ir sharoitga qaramasdan, butun dunyodan tashrif buyuradigan turistlar soni bo'yicha Afrikada etakchi hisoblanadi. Misr hududining deyarli hammasi cho'l zonasida joylashgan. Shundan faqat 3,5 foiz yoki 35 ming km² qismi Nil daryosi deltasi va vodiysiga to'g'ri keladi. Relefi va geologik tuzilishi jihatidan Misr hududi shartli ravishda quyidagi zonalarga bo'linadi:

- Liviya cho'li;
- Arabiston cho'li;
- Sinay yarim oroli;
- Nil daryosi vodiysi va deltasi.

Misrda turizm asosiy daromad keltiruvchi soha bo'lib, XX asrning 70-yillaridan boshlab davlat tomonidan ushbu tarmoqni rivojlantirish uchun katta ahamiyat qaratildi va investitsiyalarning asosiy ulushi nemis tadbirkorlariga hisobiga to'g'ri keldi. Natijada 90-yillarning boshlariga kelib, turizmdan keladigan daromad Suvaysh kanalida kemalardan tushadigan daromaddan oshdi va 2 mlrd. dollarni tashkil qildi.

Dengiz sohilidagi Sharm ash-Shayx, Xurgad va boshqa kurort shaharlarida kurort majmualari intensiv ravishda qurilgan va modernizatsiya qilingan bo'lib, dayving va serfingni sevuvchilar uchun juda maroqli sanaladi. Misrda qadimgi Misr, hristianlar va o'rta asrlarda arablar tsivilizatsiyasidan meros qolgan yodgorliklari mavjud. Turistlar qadimgi Misr ehromlari, Giza piramidalari, Shohlar vodiysi, Fir'avnlarni ehromi O'rta asrlar yodgorliklari, ya'ni Islom va Ko'hna Misrga tashrif buyuradilar.

Ekoturizm keng qamrovli infratuzilmani talab qilmaydigan, turizmning boshqa turlariga qaraganda kichik, ammo tez o'sib borayotgan bir harakat va atrof-muhitga katta ta'sir ko'rsatadi. Misr turizmining deyarli 75 foizi asosan Sinayda va Qizil dengizda dam olishga e'tibor qaratilgan.¹⁸ Misr Turizm vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan turizmni rivojlantirish strategiyasida ekologik jihatlarga e'tibor qaratilgan. Ushbu strategiya Misrning noyob yodgorliklari bilan bir qatorda ekoturizm resurslarini ham himoya qilishga qaratilganligi katta ahamiyatga ega. Turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga Akaba ko'rfazining qirg'og'i, Xurgadadan Qizil dengizdagi Safagagacha, Nil qirg'oqlaridagi Soxagdan Asuanagacha bo'lgan hududlar va yaxta turizmi kiradi.¹⁹

Misrda 1280 km.ga teng marjon qoyalar mavjud va ularning ko'pchiligi Qizil dengiz hududida joylashgan bo'lib, hudud katta bioxilma-xillikka ega. Masalan, faqat Xurgada hududiga har yili olti yuz ming nafar turist atrofida sayyoh suv ostiga tushish uchun tashrif buyuradi. Dengiz sohili resurslari va marjon qoyalar umumiy mulk bo'lib, dayving hududlarga kirish uchun vosita sifatida qaralmoqda. Shu sababli, marjon qoyalar va unga bog'liq joylarni qo'riqlash, rekreatsion faoliyatni samarali boshqarish uchun turistik siyosatni ishlab chiqish zarurati paydo bo'ldi.

Hozirgi kunda Misr er maydonining 9 foizida 23 ta qo'riqlanadigan hududni ichiga olgan tabiiy rezervatlar mavjud va yaqin yillarda yana 17 ta tabiiy hududni tashkil qilish kutilmoqda. Keyingi yillarda bir qator tarixiy yodgorliklar qazilgan va qayta tiklangan joylarda bir necha milliy parklar va qo'riqlanadigan hududlar ochildi. Ko'pchilik maxalliy turoperatorlar juda ko'p har xil tabiiy mahsulotlar, sarguzasht va sport turizmi, baliq ovi va ovga chiqishni taklif qilmoqda.

1983 yilda Ras-Muxammad Milliy parki sifatida e'lon qilinishi Xurgada-Safaga hududida ekologik yaxshilanish Janubiy Sinayda tabiatni muhofaza qilish siyosati va faoliyatiga nisbatan sekin rivojlanishni boshladi. №102G'1983 qonuni bilan himoya

¹⁸ Smits R., & Shousha, N. (1998). Egypt's Red Sea Resorts...trends and Opportunities ... Retrieved from [http://www.hotel-online.com/Trends/Andersen/1998_Egypt's Resorts.html](http://www.hotel-online.com/Trends/Andersen/1998_Egypt's%20Resorts.html)

¹⁹ Wahab, S. Tourism development in Egypt: Competitive strategies and implications. In C. Cooper & S. Wanhill (Eds.), *Tourism development: Environmental and community issues*. London: John Wiley & Sons 1997.

qilinadigan Gebel-Elba muhofaza qilinadigan hududi bilan bog'liq Xurgadaning sohil hududidagi qoyalar tizimi mavjud ettita orol mavjud.²⁰

Keyingi 20 yilda Turkiya iqtisodiyotida turizm alohida ahamiyatga ega tarmoqlardan hisoblanadi. Ushbu sohada 2 mln.dan ortiq kishi band bo'lib, jahonda turistlar orasida ommaviyligi bo'yicha 6-o'rinda turadi. Mamlakatda xalqaro sayyohlik jahon hamjamiyatiga a'zo bo'lgan davlatlar xalq xo'jaligining eng noyob daromad sohasiga aylanib bormoqda. Chunki, xalqaro sayyohlik turistik mahsulot eng ko'p eksport qilishning xususiyatini o'zida mujassamlashtirgan sohadir. Buning uchun mamlakat osoyishtalik va barqarorlik yuzasidagi siyosat yuritish shart bo'lib hisoblanadi.

Ichki va xalqaro sayyohlikni rivojlantirishda avvalo rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish va malakali kadrlar tayyorlash birinchi masala hisoblanadi. Tarmoqni iqtisodiy rivojlanishda mutaxassislar etakchi rol o'ynaydi. Shuning uchun ham, sayyohlik sohasi bo'yicha yosh iqtidorli mutaxassislarni tayyorlash, ularni bozor iqtisodiyoti tufayli yuzaga keladigan muammolarni hal qilishga jalb qilish hamda shu orqali O'zbekistonni xalqaro va ichki sayyohlikni rivojlangan mamlakatga aylantirish shu kunning muhim vazifasidir. Ana shunday turizm sohasida katta tajribaga ega bo'lgan mamlakatlardan biri Turkiyadir. Turkiya turizmi quyidagi quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- o'xshash madaniyat;
- islom dini qadamjolarining ko'p ekanligi;
- tarixiy joylarga boy ekanligi;
- qo'shni davlatlardagi notinch vaziyatning mavjudligi;
- iqtisodiy-ijtimoiy hamkorlikning chuqur yo'lga qo'yilganligi.

Turkiya turizmi 1929 yildagi iqtisodiy inqiroz va ikkinchi jahon urushi natijasida umuman e'tiborsiz qolgan. Turistik manzilgohlar haqida izlanishlar olib borishning ham imkoni kam bo'lgan. Turkiyada turizmni boshqaruvchi ilk tashkilot 1934 yilda tashkil etilgan Iqtisodiyot Vazirligi qoshidagi Turizm byurosi bo'lgan.

²⁰ Mohammed I. Eraqi. Ecotourism resources management as a way for sustainable tourism development in Egypt // Tourism Analysis, 2007, Vol.12. - pp.3

Turkiya turizmi rivojlanishida ilk qatamlar 50-yillarga borib taqaladi. Bu yillarda turizm infratuzilmasiga investitsiya kiritildi hamda turistik obyektlar ta'mirlandi. Shu davrda amalga oshgan muhim ish Turkiya hukumatining "Turizmni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qonuni edi hamda 1953 yilda mazkur qonun qabul qilingan.

Keyinchalik 1957 yilda Turizm vazirligi tashkil qilindi. 1961 yilda yangi konstitutsiyaning qabul qilinishi natijasida barcha sohalar singari iqtisodiyot va ayniqsa turizm sohasini rivojlantirishga oid dasturlar ishlab chiqila boshlandi. Bunda turizmga oid dasturlarni amalga oshirishda xususiy va davlat sektori o'zaro hamkorlikda amalga oshirildi. Daromadlar ko'paytirilib, xarajatlar kamaytirila borildi. Turkiya turizmi rivojlanish tendensiyalari 1963-2018 yillarni o'z ichiga olgan quyidagi 10 ta bosqichdan tashkil topgan (1.3.1-jadval).

1.3.1-jadval

Turkiyada turizm sohasini rivojlantirish tendensiyalari (1963-2018 yillar)²¹

Bosqichlar	Asosiy vazifa yoki amalga oshirilgan ishlar yo'nalishlari
1-bosqich (1963-1967-yillar)	<ul style="list-style-type: none"> - turistlarni ma'lumotlar bilan ta'minlash uchun informatsion idoralarning ochilishi va pul almashtirish jarayonlarini engillashtirish - mehmonxonalar sonini oshirish - tabiat yodgorliklari, milliy parklardan turistik attraksion sifatida foydalanish - qo'shni mamlakatlar o'rtasida transportlar soni va turini oshirish - turizmda kadrlarni o'qitish - turistik manzilgohlarda ovqatlanish korxonalari tashkil qilish, sovg'a va suvinerlar sotish shoxobchalarni tashkil qilish
2-bosqich (1968-1972)	<ul style="list-style-type: none"> - reklamani oshirish - ichki turizmni qo'llab-quvvatlash - turistik investitsiyalarni potentsiali mavjud hududga kiritish - turli xalqaro hamkorlik imkoniyatlarni izlash
3-bosqich (1973-1977-yillar)	<p>Bu davrda iqtisodiy tanglik tufayli kutilgan natijalarga erishilmadi. Shunday bo'lsada, avtomobil yo'llari kengaytirildi, yangi aeroport qurildi, elektr va kanalizatsiya tizimlari yo'lga qo'yildi, milliy parklar va tarixiy san'at asarlariga investitsiyalar kiritildi.</p> <p>Kiritilayotgan investitsiyalarning asosini xususiy sektor tashkil qiladi. Bundan tashqari, kredit imkoniyatlari oshirildi, turizmda malakali kadrlar etishmasligi sababli turizm va mehmonxona</p>

²¹ "Tourism Policy in Turkey's Development Plans" Yaşar Akça International Journal of Business and Social Science Vol. 8, No. 1; January 2017.

	boshqaruvi universiteti ochildi.
4-bosqich (1979-1983-yillar)	Bu davrda asosan turistlar sonini oshirishga e'tibor qaratildi. Joylashtirish tizimida etishmovchilik bo'lganligi sababli qishloq va shahar, urush va tarixiy yodgorliklar joylarning turistik sohaga yo'naltirilishi, shu joylarda joylashtirish tizimini tashkil qilish yo'lga qo'yildi. "House tourism" qo'llab-quvvatlandi. Bunda turizmni istalgan sohasida imkoniyati bo'lgan oila uchun turli xil imtiyozlar berildi. Masalan, bir oila kichik bir mehmonxona qursa yoki o'z xonadonini mexmonxona sifatida restoran sifatida tashkil etsa unga imtiyozlar beriladi.
5-bosqich (1985-1989-yillar)	<ul style="list-style-type: none"> - turizmni turini ko'paytirish tabiat, tarixiy, arxelogik, madaniy, qishki, sport, ov, festival, sog'lomlashtirish turlarini rivojlantirish - Bolqon, OECD va OPEK mamlakatlari bilan aloqalarni yaxshilash va hamkorlik qilish - individual turizmni e'tiborsiz qoldirmagan holda ommaviy turizmni rivojlantirish, ishchilarning ta'til va dam olishlarini to'g'ri yo'naltirish turizmda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar o'rniga bank kreditlaridan foydalanish
6-bosqich (1990-1994-yillar)	<ul style="list-style-type: none"> - turizm sektoridagi ishchilarni sonini oshirish va bu tarmoqdagi ishchilar malakasini muntazam oshirib turish - mamlakatdagi turli tantanalar bayramlar uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratib berish - turistik imkoniyatlar boshqaruvini rivojlantirish, masalan, oilaviy xostel biznesini yo'lga qo'yish va undagi xizmat sifatini yaxshilash
7-bosqich (1996-2000-yillar)	<ul style="list-style-type: none"> - turizm sohasida yuqori samaradorlikka erishish, iqtisodiyotni rivojlantirish, tabiiy va madaniy qadriyatlarini boyitish - geografik joylashuvni hisobga olagan holda turizm turlarini ko'paytirish - xizmat sifatini oshirish uchun sertifikatlash tizimini yaratish - turistik gid-assotsiatsiyasini tashkil etish va turizm sohasida professional ishchilar sonini oshirish
8-bosqich (2001-2005-yillar)	<ul style="list-style-type: none"> - dunyo turizm daromadida Turkiyaning ulushini oshirish - turizmni rag'batlantirishning asosiy maqsadi marketing va havo transporti sifatini oshirish - turizm sohasida ishchilar sonini oshirish va ularni xalqaro standart asosida tayyorlash - arxeologik, tabiat yodgorliklari, milliy parklar, tarixiy va boshqa turistik joylarni himoya qilish, ya'ni ularga zarar etkazilmasligi va o'z qiyofasini yo'qotmasligi

9-bosqich (2007-2013-yillar)	<ul style="list-style-type: none"> - turizm investitsiyalarni rag'batlantirishni davom ettirish - turizm amaliyotida qo'shilgan qiymat solig'i va maxsus iste'mol soliq stavkalarini kamaytirish - Yevropa va Rossiya turistlariga qaram bo'lib qolmasdan turli mamlakatlar, xususan arablar, xitoylik va yaponiyalik turistlarni jalb qilish hamda bu orqali Buyuk Ipak Yo'li turizmini boshlash - vizual, yozma va ommaviy axborot vositalarida sayyohlik tashkilotlarini reklama qilish, turizmni rivojlantirish maqsadida yarmarkalar, konferentsiya, festival va sport musobaqalarni o'tkazish
10-bosqich (2014-2018-yillar)	<ul style="list-style-type: none"> - malakali ishchi kuchi va xizmatlar sifatini yaxshilash - dunyo bozorida Turkiya turizmi brendini yaratish, turistlarning ehtiyojidan ortiqroq darajada informatsiya tizimini yaratish. <p>Turkiyada turistlar soni va ulardan keladigan daromad ulushi yildan-yilga oshib borayotgan bo'lsada, har bir turist uchun to'g'ri keladigan kiritim juda kam miqdorda va buni hal qilish uchun turli hil rejalarni ishlab chiqish va chora-tadbirlar ko'rish lozim</p>

Darhaqiqat, Turkiya turizmida 80-yillarda amalga oshira boshlangan rivojlanish va yillar davomidagi barqaror o'sish natijasida Turkiya dunyo turizmida o'z o'rniga ega davlatlar qatoriga kirdi. Turkiya o'zining go'zal tabiati, qadimiy tarixi, boy madaniy qadriyatlari va Istanbul va Antaliya singari dunyoga mashhur shaharlari, shuningdek yuqori bilim va tajribaga ega kadrlari va yuqori sifatli qulayliklar va xizmatlar bilan dunyoda o'z imidjiga ega.

Turkiya xususiy va davlat sektorlari hamkorligi orqali qulay investitsion muhit yarata oldi va buning natijasida butun dunyo e'tiborini o'ziga qarata oldi. Natijada, Turkiya turistlar tashrifi bo'yicha 2002 yilda 17-o'rindan 2013 yilda oltinchi o'ringa chiqdi.

1.3.2-jadval

Turkiyaga tashrif buyurgan turistlar soni va ulardan tushgan tushum²²

Yillar	Daromad (ming dollar)	Turistlar soni	O'rtacha dollar
2004	17 076 606	20 262 640	843
2005	20 322 112	24 124 501	842
2006	18 593 951	23 148 669	803

²² Source: TurkStat, Central Bank, Ministry of Culture and Tourism.

2007	20 942 500	27 214 988	770
2008	25 415 067	30 979 979	820
2009	25 064 482	32 006 149	783
2010	24 930 997	33 027 943	755
2011	28 115 692	36 151 328	778
2012	29 007 003	36 463 921	795
2013	32 308 991	39 226 226	824
2014	34 305 903	41 415 070	828
2015	31 464 777	41 617 530	756
2016	22 107 440	31 365 330	705

Jadvalga asosan 2013 yilda 37,8 mln. turist tashrif buyurgan bo'lib, 32.3 mlrd. dollarga teng daromad qilgan. Investitsiyalar va rivojlanish dasturlari orqali turfirmalar soni 2002 yilda 4344 tani tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilga kelib, bu ko'rsatkich 7949 tani tashkil etgan. Shuningdek, joylashtirish vositalari, xususan o'rinlar soni 396148 tadan 749299 taga oshgan.

Shuningdek, Turkiyaga tashrif buyurgan turistlar soni 2004 yilda 20,2 mln. kishini tashkil etgan bo'lsa, daromad 17,1 mlrd. dollarni tashkil etgan. 2008 yilga kelib, turistlar soni va ulardan keladigan daromad 50 foizga oshgan. 2008 yilda kuzatilgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi Turkiya turizmiga deyarli ta'sir o'tkazmadi.

Aksincha, turistlar sonining o'sishi kuzatildi. 2014 yilga kelib, Turkiyaga tashrif buyuruvchi turistlarning soni 41,4 mln. kishiga etgan bo'lsa, ulardan tushgan daromad 34,3 mlrd. dollarga etdi. 2015 yilda turistlar soni 41,6 mln. kishi va ulardan tushadigan tushum 31,4 mlrd. dollarni tashkil qildi.

Turkiya turizmi, asosan tarixiy joylarning xilma xilligi, dengiz bo'yidagi plyajlari bilan butun dunyoga mashhur. Uning plyajlari Qora dengiz va O'rta Er dengizi qirg'oqlarida joylashgan. Turistlar Turkiyaga Germaniya, Rossiya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Arab mamlakatlari, Kavkaz va Yaponiya mamlakatlaridan tashrif buyuradilar. Shimoliy Amerika, Gruziya va Skandinaviya mamlakatlaridan

qisman turistlar tashrif buyuradi. Britaniyalik turistlar Aeglan kurort joylaridagi Bosfor qo'ltig'i yoki Marmar dengiziga tashrif buyuradilar.

Rossiyalik turistlar Turkiyaning Janubiy O'rta er dengizi va Antaliya shahriga tashrif buyuradilar. Arab, Yaponiya va Germaniyalik turistlar tarixiy joylar Efesus va Istanbulga tashrif buyuradi. Oxirgi 5 yil ichida Ispaniyadan keladigan turistlarning oqimi oshib bormoqda. Ko'pchilik ispaniyalik turistlar Istanbul mehmonxonalarini buyurtma qiladilar. Ular shu joylar haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishni hohlaydilar va ular asosan Kapadokiyaga borishadi. Hamda oxirgi besh yil ichida arablarning soni ham oshib bormoqda.

Turkiyada turizm sohasi uchun mas'ul tashkilot Madaniyat va turizm Vazirligi bo'lib, uning tashkiliy tuzilishida bir qancha guruhlar mavjud bo'lib, ular marketing, investitsiya, madaniy merosni saqlash va ta'lim berish kabi faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Vazirlikning mamlakat ichida 81 ta viloyat madaniyat va turizm guruhlari va 39 ta mamlakatda 44 ta madaniyat va targ'ibot bo'linmalari mavjud.

Turkiya qirg'oqlarini to'rtta dengiz yuvib turishi, xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud. Ya'ni, dengiz sohillarida O'rta Er dengizining subtropik iqlimi, 700 ming o'rinli 2870 ta mehmonxona, termal manbalarning soni bo'yicha Yevropada 2- va jahonda 7-o'rinda turadi, ko'p sonli diqqatga sazovor joylarining mavjudligi bilan ajralib turadi.

Rivojlangan transport tarmog'i mamlakat ichida istalgan joyga qulay borish imkoniyatini beradi. Turkiyada ekoturizmni tashkil qilish bo'yicha ilk qadamlar 1956 yilda chiqqan "O'rmon to'g'risida"gi Qonuni asosida qo'yila boshlandi. Bu qonun asosida bir necha rezervatlar va milliy parklar tashkil qilindi.

O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab, Turkiya iqtisodiyotida rivojlanish strategiyasi, 70-yillaridan iqtisodiyotning yuksalishi, 80-yillarda turizm sanoatining rivojlanishi natijasida resurslardan me'yordan ortiq foydalanish hamda atrof-muhitga zarar etkazish kabi salbiy oqibatlar yuzaga kela boshladi.

Turkiyada turizmning salbiy oqibatlarini yumshatish maqsadida tabiatga yordam beradigan, unga zarar etkazmaydigan va uning maqsadi tabiatni muhofaza qilish

bo'lgan turizmning yangi turlarini (ekologik, madaniy, diniy, tog', ilmiy turizm va h.k.) ekoturizm va madaniy turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratildi.²³

Demak, mintaqada istiqbolli soha sifatida ekoturizmning cho'l, dasht va ov turizmi kabi yo'nalishlari, mehmonxona xo'jaligi va restoran biznesini rivojlantirishda katta imkoniyatlarning borligi, uning takrorlanmas hayvonot va o'simlik dunyosi, qadimiy, boy madaniy merosi bo'lgan noyob arxeoekoturistik qal'alar va boshqa obyektlarga egaligi, aholi bandligi va daromadlarini oshirish imkoniyatlarining mavjudligi, ekoturizmni yangi yo'nalishlarini rivojlantirishda Misr, Turkiya, Avstraliya va Xitoy kabi davlatlarning tajribalarini qo'llash lozim.

Bu esa mintaqada Xorazm viloyatida turizm salohiyatini oshirish jahon andozalariga javob beradigan qilib yuzaga chiqarish uchun ancha mablag' ajratish lozim. Chunki, turizm salohiyati iqtisodiy yoki siyosiy umumiy tuzilishning tarkibiy qismlarga ajratib, yordamchi va bo'ysunuvchi xarakterga ega bo'lib, umumiy tuzilmaning bir tekis ishlashini ta'minlashga xizmat qiladi.

²³ Altan Ş., 2006; Türkiye'de Eko-Turizm Uygulamaları ve Ekonomiye Katkıları, Niğde Üniversitesi SBE, İktisat ABD, Yüksek Lisans Tezi.

II-BOB. MINTAQADA TURIZM SALOHIYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI VA XUSUSIYATLARI

2.1. Mintaqada turizm salohiyatini oshirishning hozirgi holati

Xorazm viloyati mintaqasida turizm salohiyatini oshirish hozirgi holatga ega. Chunki, viloyatda turizm salohiyatni oshirish uchun yetarli imkoniyatlar mavjud bo'lib, bu borada turizm xizmatlari ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish lozim. Buning uchun yangi turistik yo'nalishlarni tashkil etish talab qilinadi. Bu dastlabki bajariladigan bosqich bo'lib, bir qancha davrlarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, turizm sohasini jadal rivojlantirish uchun investitsiyalarni keng jalb qilish, sohaga innovatsion g'oya va texnologiyalarni joriy qilish hamda natijada mintaqaning boy tabiiy, madaniy va tarixiy merosi resurslari va imkoniyatlaridan samarali foydalanish talab etiladi. Bu borada turizmni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan masalalarga katta e'tibor berilib, uning turizmni rivojlantirish borasidagi aniq vazifalar belgilab berildi hamda bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus farmoni qabul qilindi.²⁴

Mazkur qabul qilingan huquqiy hujjatlar turizm sohasida yangi turistik yo'nalishlarni tashkil etish borasidagi imkoniyatlarni yuzaga chiqarishga qaratilgan. Chunki, mamlakatda turistik faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatlari katta bo'lib, bu esa o'z navbatida O'zbekistonda turizm sohasini boshqarishni takomillashtirish tamoyillarini mukammal ishlab chiqish bilan bog'liqdir. Mazkur yo'nalishda rivojlanayotgan turizm tarmoqlarini jadal yuksaltirish eng muhim vazifalar qatoriga kiradi.

Dunyo mamlakatlarida keskin rivojlanib borayotgan turizm mamlakat iqtisodiyotidagi eng serdaromad soha hisoblanadi. Shu bois, turizmni rivojlantirish davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masala bo'lib, turizmni rivojlantirish muammolarini o'rganishni talab qiladi.

²⁴O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi PF-5326-sonli "O'zbekiston Respublikasida turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni

Turizmni bilmasdan turib, dunyo turizmi hamjamiyati, hamkorligiga qo'shilish va O'zbekistonda turizm sohasini xalqaro va mahalliy darajada rivojlantirib bo'lmaydi. Buni amalga oshirish orqali turistik salohiyatning oshishiga erishiladi.

Mintaqada turizm salohiyatini oshirish maqsadida turistik resurslar holati o'rganilgan va har bir turizm yo'nalishi kelajakda turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi (2.1.1-jadval).

2.1.1-jadval

Xorazm viloyatining turistik resurslari²⁵

Turizm yo'nalishlari	Turistik resurslar	Joylashuv mintaqalari
Madaniy-tarixiy turizm	“Ichon qal’a” muzey qo’riqxonasi, “Deshon qal’a” hududidagi madaniy me’ros obyektlari hamda boshqa tarixiy obidalar	Xiva shahri, Shovot, Bog’ot, Hazorasp Yangiariq tumanlari
Arxeologik turizm	Qadimiy Xorazm shaharlari qoldiqlari, qadimiy qal’alar, arxeologik topilmalar	Xiva, Urganch, Shovot, Hazorasp va Qo’shko’pir tumanlari
Ekologik turizm	Amudaryo sohili, daryo bo’ylab joylashgan o’rmonlar, o’simliklar dunyosi	Gurlan, Yangibozor, Bog’ot, Xonqa, Urganch va Hazorasp tumanlari
Gastronomik turizm	Tuxum barak, shivit oshi, Xiva ijroni va boshqa faqatgina Xorazm viloyatiga mos bo’lgan milliy taomlar	Butun viloyat hududida
Madaniy-ko’ngilochar turizm	Viloyat hududida nishonlanadigan milliy bayramlar, tobora ko’lami kengayib borayotgan an’anaviy “Raqs sehri” festivali	Xiva shahri
Agro turizm	Viloyatning barcha hududlarini qamrab olgan holda an’anaviy tarzda o’tkazib kelinayotgan “Gurvak – Xorazm qovunchiligi ramzi” nomli qovun sayli	Xiva shahri
Ziyorat turizmi	Pahlavon Mahmud, Sayyid Mohi Ro’yi Jahon, Said Alovuddin, Uch avliyo, Abdol Bobo, Shohimardon, Shayx Mavlon bobo, Shayx Muxtor Valiy, Said Ota, Yusuf Hamadoniy, Said Odina Eshon ziyoratgohlari va boshqa muqaddas qadamjolar	Xiva, Urganch, Bog’ot, Yangiariq va boshqa tumanlar

²⁵ www.xorazm.uz

Darhaqiqat, har bir mintaqaning turizm salohiyatini oshirish uchun turistik resurslar va turizm xizmatlari ko'rsatish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda, milliy turizmni rivojlantirishning asosi bo'lgan turistik turlarni ishlab chiqish va ushbu marshrutlar asosida turistlarni keng jalb qilib, sayohatlarni tashkil etish muhim masala bo'lib hisoblanadi. Chunki, yangi ko'rinishdagi xizmatlarni ko'rsatish turistlarni ko'plab jalb qiladi.

Aynan, turizm xizmatlari ko'rsatishga bugungi kunda talab juda katta bo'lib, bu esa mazkur sohada ishlovchi mutaxassis-kadrlardan ulardan yuqori bilim, malaka va tajribaga ega bo'lishni taqozo etadi. Bu orqali turizm sohasida turistlarni olib kelish amalga oshiriladi. Turizm xizmatlarni ko'rsatish transport, joylashtirish, ovqatlantirish va ekskursiya xizmatlari bilan birga amalga oshirilishi lozim.

Viloyatda turizm salohiyatini oshirish va undagi xizmatlar ko'rsatishni rivojlantirish maqsadida turizm sohasini rivojlanishga qaratilgan istiqbolli rejalarini amalga oshirish borasida bajarilayotgan "2017-2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish" dasturi doirasida jami 63 ta band bo'yicha belgilangan tadbirlar va loyihalarni amalga oshirish belgilangan. Hozirgi kunda mazkur loyihalar bo'yicha quyidagi yo'nalishlardagi ijobiy ishlar bajarilmoqda:

I. Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm infratuzilmasini rivojlantirish. Unda "Toshkent-Samarqand-Buxoro-Xiva" yo'nalishi bo'yicha asosiy turizm markazlarini bog'lovchi temir yo'l hamda Xiva shahrida zamonaviy vokzal qurish vazifasi belgilangan bo'lib, 2017-2018 yillarda "Urganch-Xiva" yo'nalishini qurish uchun 35,9 mln. dollarlik loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilgan.

"Urganch-Xiva" yangi temir yo'l liniyasining qurilishi loyihasi bo'yicha 168 ming m. kub tuproq ishlari bajarildi va 2200 m. temir yo'l izlari yotqizildi. Natijada, temir yo'l liniyasi to'liq ishga tushdi.

II. Turizm yo'nalishlari va xizmatlarini takomillashtirish. Unga asosan, turizm subyektlariga Xiva tumanida ekzotik turizmning yangi turlarini tashkil etishda amaliy yordam ko'rsatish, xususan tuyada safar qilish, cho'l hududlariga sayr qilish, ko'llarda baliq ovlash, tabiat qo'ynida dam olish va boshqa ishlar yuzasidan bugungi

kunda “Eshon Ravot tur” xususiy korxonasiga qarashli ekoturizm maskanida sayyohlar uchun tuyalarda sayr qilish mashg’uloti yo’lga qo’yildi. Hamda “Xiva Qorako’l” fermer xo’jaligi hududidagi ko’lda baliq ovlash joylari tashkil etildi.

III. Hududning turizm salohiyatini targ’ib qilish. Xorazm viloyatining turizm salohiyatini xorijiy telekanallarda, jumladan Rossiyaning markaziy telekanallarida keng reklama qilish maqsadida Xorazm viloyati va Xiva shahri haqida videolavhalar tayyorlash bo’yicha Xiva va Xorazm viloyatining turizm salohiyati to’g’risidagi reklama roliklari tayyorlandi va ingliz, frantsuz, nemis, xitoy va rus tillariga tarjima qilindi hamda keng targ’ib qilinmoqda.

IV. Turistlar uchun yondash infratuzilma obyektlari holatini yaxshilash. Bu bo’yicha Urganch shahri xalqaro aeroportida turistlar tomonidan zarur ma’lumotlarga ega bo’lishlarini ta’minlovchi ma’lumot markazlarining uzluksiz faoliyatini ta’minlash va Urganch shahridagi temir yo’l vokzalida ma’lumot markazi faoliyatini tashkil qilish maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 20 martdagi PQ-1940-sonli Qarori doirasida “Urganch” xalqaro aeroportida sayyohlik axborot idorasi tashkil etildi.

“O’zavtodaryotrans” agentligi viloyat bo’limining 2017 yil 9 iyundagi ma’lumotnomasiga asosan Urganch avtovokzalida axborot markazi shakllantirilgan.

Ammo, turizm salohiyatini oshirishni yanada takomillashtirishda Xorazm viloyatida mavjud arxeologik maskanlardan turizmga keng foydalanish marshrutlarni ishlab chiqish dastlabki yo’nalish hisoblanadi. Chunki, viloyatning tarixiy-arxeologik yodgorliklari joylashgan hududlar quyidagi tarixiy-geografik joylashuvga ega:²⁶

- Xiva tarixiy-geografik va arxeologik hududi (Xiva tumani, Xiva shahri va Tuproqqal’a yodgorliklari);

- Yangiariq tarixiy-geografik va arxeologik hududi (Tuproqqal’a, Olmaotishgan – 1 va Olmaotishgan – 2 yodgorliklari);

- Bog’ot tumani tarixiy-geografik va arxeologik hududi (Qal’ajiq va Qoratepa yodgorliklari);

²⁶ Matyakubov U.R. Ekologik vaziyatni inobatga olib turizm samaradorligini oshirish yo’nalishlari va istiqbollari (Xorazm viloyati misolida). // Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2011.

- Shovot tumani tarixiy-geografik va arxeologik hududi (Tuproqqal'a, Qatqal'a va Vayangan yodgorliklari);

- Hazorasp tumani tarixiy-geografik va arxeologik hududi (Hazorasi, Qirqqiztepa, Xushbo'ztepa, Chingiztepa, Doshqal'a, Ucho'choq va Meshekli yodgorliklari);

- Qo'shko'pir tumani tarixiy-geografik va arxeologik hududi (Tuproqqal'a va Xo'jaqal'a yodgorliklari).

Mazkur arxeologik yodgorliklar ichida bugungi kunda Xiva va Hazorasp yodgorliklari nisbatan yaxshi o'rganilgan. Qolgan yodgorliklar esa tarixiy jihatdan talab darajasida o'rganilmagan. Ayniqsa, Hazorasp tumanidagi yoshi 3000 yilga teng bo'lgan Hazorasp qal'asi kelajakda ichki va xalqaro turizmga katta turistik oqimni hosil qiladi. Ammo, bu qal'aga boriladigan yo'lni qayta ta'mirlashni talab qiladi.

Darhaqiqat, Xorazm viloyatida yangi turistik xizmatlarni yaratish uchun turistik obyektlarni to'g'ri tanlash va ishlab chiqish lozim. Buning uchun mamlakatimizdagi eng ko'hna ushbu qal'adan turizm samaradorligini oshirishda keng foydalanish birinchi navbatdagi vazifa bo'lishi lozim. Buning uchun turizm sohasining rivoji uchun o'zbek xalqining dunyoga mashhur farzandlari, tarixi, boy o'tmish madaniyati va davlatchiligi haqidagi tarixiy ma'lumotlarni o'rganish kutiladigan natijalarni bera oladi.

Bugungi kunda Xorazm viloyatida turizm salohiyatni oshirishga muhim e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun tarixiy va madaniy obyektlarni rivojlantirish lozim. Shunday obyektlardan eng muhimi Xiva shahrida joylashgan. Buning uchun Xiva shahrida turizm rivojlantirish uchun investitsiyalarni keng jalb qilish, sohaga innovatsion g'oya va texnologiyalarni joriy etish hamda mintaqaning boy tabiiy, madaniy va tarixiy merosi resurslari va imkoniyatlaridan samarali foydalanish talab etiladi.

Darvoqe, Xorazm viloyatida turizmni sohasini rivojlantirishga qaratilgan yangi turmarshrutlarni yaratish uchun turizmning yangi turlarini kelajakda amalga oshirish belgilangan. Xususan, bu borada 2017-2021 yillarda viloyatda quyidagi turizm turlari tashkil qilinadi (2.1.1-jadval).

2.1.1-jadval

2017-2021 yillarda Xorazm viloyatida yangi turistik turlarning rivojlanishi haqida ma'lumot²⁷

2017 yil	2018 yil	2019-2021 yillar
madaniy-tarixiy, arxeologik, ekologik, ziyorat, gastronomik, yoshlar, madaniy-ko'ngilochar va san'at turizmi	madaniy-tarixiy, arxeologik, ekologik, ziyorat, gastronomik, yoshlar, madaniy-ko'ngilochar, sport, biznes, safar, agroturizm va san'at turizmi	madaniy-tarixiy, arxeologik, ekologik, ziyorat, gastronomik, yoshlar, madaniy-ko'ngilochar, sport, biznes, safar, agroturizm, oilaviy, sarguzasht, ekstremal, bolalar va qishloq turizmi

Mazkur jadvalga asosan, viloyatda jami turlar soni 2017 yilda 8 xildagi turizm turlari yaratildi. Ammo, 2018 yilda 12 xildagi va 2019-2021 yillarda 16 xildagi turizm turlarini yaratish belgilangan.

Ya'ni, mintaqada yangi turistik marshrut shaklidagi yo'nalishlarni tashkil qilish uchun madaniy-tarixiy, arxeologik, ekologik, ziyorat, gastronomik, yoshlar, madaniy-ko'ngilochar, sport, biznes, safar, agroturizm va san'at turizm turlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Biroq, 2019-2021 yillarda mazkur turlarni yanada kengaytirish belgilangan. Ya'ni, ularga madaniy-tarixiy, arxeologik, ekologik, ziyorat, gastronomik, yoshlar, madaniy-ko'ngilochar, sport, biznes, safar, agroturizm, oilaviy, sarguzasht, ekstremal, bolalar va qishloq turizmi kabilar kiradi hamda mazkur turlarni kelajakda rivojlantirishning istiqboli porloq ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, Xorazm viloyatida 2013-2017 yillarda turistik yo'nalishlar amalga oshirilib, ularning katta qismi xorijiy turistlarga hamda kamroq qismi mahalliy turistlarga to'g'ri keladi. Bu holatni quyidagi jadvalda ko'rish mumkin (2.1.2-jadval):

2.1.2-jadval

²⁷ Manba: Xorazm viloyati Turizmni rivojlantirish departamentining ma'lumotlari.

**2013-2017 yillarda Xorazm viloyatida amalga oshirilgan yangi turistik
yo'nalishlar haqida ma'lumot²⁸**

№	Turistlar soni	Turistik yo'nalish turlari	Sayyohlar soni, kishida				
			2013 yil	2014 yil	2015 yil	2016 yil	2017 yil
1	Xorijiy turistlar soni	Madaniy-tarixiy, arxeologik, ziyorat, tarixiy, ekologik, madaniy-ma'rifiy va gastronomik	53300	46200	40825	46600	60660
	Yevropa	Madaniy-tarixiy (Buyuk ipak yo'lini o'rganish) va arxeologik	41980	35102	28094	32314	44067
	Osiyo va Sharqiy Osiyo	Ziyorat, tarixiy va ekologik	7510	7496	7936	9408	15007
	MDH	Madaniy-ma'rifiy, gastronomik va ekologik	1731	1942	2669	3049	4868
	Amerika	Madaniy-ma'rifiy va ekologik	1875	1552	1978	1658	2440
	Afrika	Madaniy-ma'rifiy va ziyorat	204	128	148	171	278
2	Mahalliy turistlar soni	Ziyorat va madaniy-tarixiy	20000	21500	22800	29200	38626

Mazkur jadvalga asosan, viloyatda 2017 yilda madaniy-tarixiy, arxeologik, ziyorat, tarixiy, ekologik, madaniy-ma'rifiy va gastronomik turlardan foydalangan xorijiy turistlar soni 60660 nafarni tashkil etgan. Ammo, o'sha yilda ziyorat va madaniy-tarixiy turlardan foydalangan mahalliy turistlar soni 38626 nafarga to'g'ri keladi.

Ushbu turlar xorijiy va mahalliy turistlarga taqdim qilinmoqda. Bu esa mintaqa iqtisodiyotiga katta samara keltirayotgan mehmonxonalar va turistik firmalarning sonini ko'paytirish o'z navbatida turizmning zamonaviy turlarini yaratish asosida amalga oshiriladi hamda natijada turistik salohiyatni oshirishni taqozo etadi. Hamda mintaqada turistik xizmatlarni ko'rsatish uchun turistik resurslardan samarali foydalanish lozim hamda ularning turlariga qarab maqsadli reja ishlab chiqilishi

²⁸ Manba: Xorazm viloyati Turizmni rivojlantirish departamentining ma'lumotlari.

lozim. Buning uchun joylashtirish, ovqatlantirish, sayohat va transport xizmatini tashkil etish kabi qo'shimcha xizmatlarni ham talab darajasida ko'rsatishni yo'lga qo'yish lozim.

Xorazm viloyati mintaqasida turistik salohiyatning yangi yo'nalishlardan foydalanish o'z navbatida viloyatning tarixiy-madaniy xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Ya'ni, viloyatda joylashgan arxeologik maskanlardan foydalanish natijasida yangi yo'nalishlarni ishlab chiqish mumkin. Chunki, viloyatdagi tuman va shaharlarda tarixiy-arxeologik yodgorliklari joylashgan va ular o'ziga xos tarixiy-geografik joylashuviga ega. Shu boisdan ham, Xorazm viloyatidagi mavjud va foydalanilayotgan tarixiy-madaniy turistik obyektlarga turistik-ekskursion yo'nalishlardagi turlarni ishlab chiqish turistik oqimning ko'payishini ta'minlaydi.

Xorazm viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish, viloyatga xorijiy va mahalliy sayyohlarni yanada ko'proq jalb qilish, turizm sohasida ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va ko'lamini yanada oshirish, soha uchun malakali kadrlar tayyorlash, sayyohlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, viloyatning turistik salohiyati va infratuzilmasi islohotlari izchil amalga oshirildi.

Bularning natijasida Turizmni rivojlantirish departamenti va boshqa idora va tashkilotlar bilan hamkorlikda turizm sohasida olib borilgan ishlar natijasida 2018 yil davomida viloyatda jami 13 ta joylashtirish vositalari foydalanishga topshirilishiga erishildi va qo'shimcha 80 ta xonalar soni hamda 201 ta o'rinlar soni yaratildi. Buning natijasida hozirgi kunda viloyatda faoliyat yuritayotgan jami joylashtirish vositalarining soni jami 69 taga etib, ulardagi mavjud xonalar soni 1356 ta va o'rinlar soni 2646 tani tashkil qildi.

2019-2020 yillar davomida Xorazm viloyatida 1650 xona va 3316 o'rindan iborat bo'lgan, jami 53 ta joylashtirish vositalari xorijiy va mahalliy investorlar tomonidan qurilib foydalanishga topshirilishi va natijada joylashtirish vositalaridagi xonalar soni 222 foizga, ya'ni 1356 tadan 3006 tagacha, o'rinlar soni esa 225 foizga ya'ni, 2646 tadan 5962 taga ortishi rejalashtirilgan.

Viloyat Turizmni rivojlantirish departamenti tomonidan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida olib borilgan targ'ibot va tashviqot ishlari natijasida 2018 yilda viloyatda

jami 11 ta yangi turoperatorlar faoliyatlari yo'lga qo'yilishiga erishildi. Natijada viloyatda faoliyat yuritayotgan jami sayyohlik tashkilotlari soni jami 33 tani tashkil qildi. 2019 yil davomida jami 26 ta yangi turoperatorlar faoliyatlari yo'lga qo'yilishi va buning natijasida turoperatorlar soni 178 foizga ya'ni, 33 tadan 59 taga ortishi rejalashtirilgan.

Bugungi kunda Xorazm viloyatida zamonaviy turistik sinfga mansub jami 26 ta avtotransport vositalari sayyohlarga sifatli xizmat ko'rsatib kelayotgan bo'lsa, 2018 yilda viloyat Turizmni rivojlantirish departamenti tomonidan tadbirkorlik subyektlariga hukumat tomonidan turizm sohasida yaratib berilayotgan imtiyoz va preferentsiyalar haqidagi ma'lumotlarning to'g'ri etkazib berilishi natijasida tadbirkorlik subyektlari tomonidan zamonaviy turistik sinfga mansub jami 21 ta avtotransport vositalari sotib olinishiga muvaffaq bo'lindi.

2019 yil davomida transport va logistika infratuzilmasini yanada rivojlantirish maqsadida jami 30 ta turistik toifadagi zamonaviy avtobuslar sotib olinishi va buning natijasida viloyatdagi mavjud turistik toifadagi zamonaviy avtobuslar soni 215 foizga ya'ni, 26 tadan 56 taga ortishi rejalashtirilgan.

Hozirgi kunda viloyatda 103 ta gid-ekskursovodlar tegishli sertifikatlar olindi va sayyohlarga xizmat ko'rsatib kelmoqda. 2018 yilda viloyat Turizmni rivojlantirish departamenti va "Turizm sohasidagi kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash" markazi Xorazm viloyati filiali bilan hamkorlikda tashkil qilingan ishlar natijasida viloyatda jami 14 ta yangi gid-ekskursovodlarga tegishli sertifikatlar berilib, ularning faoliyatlari yo'lga qo'yildi.

2019 yil davomida viloyat bo'ylab sayyohlarga xizmat qiladigan gid-ekskursovodlar soni va sifatini yanada oshirish maqsadida 27 ta gid-ekskursovodlar tayyorlash rejalashtirilgan bo'lib, buning natijasida gid-ekskursovodlar jami soni 126 foizga ya'ni, 103 tadan 130 taga ortishi rejalashtirilgan.

Bugungi kunda Xorazm viloyatida moddiy madaniy meros obyektlari 239 taga yetib, ulardan 17 ta arxelogiya obyektlari, 134 ta arxitektura obyektlari, 80 ta monumental san'at yodgorliklari, 2 ta muzeylar hamda 6 ta diqqatga sazovor joylar tashkil qiladi. 2018 yilda viloyatda 14 ta moddiy madaniy meros obyektlari

rekonstruksiya qilingan bo'lsa, 2019 yil davomida 18 ta moddiy madaniy meros obyektlari rekonstruksiya qilinishi rejalashtirilgan.

Xorazm viloyatining turizm sohasidagi vaziyat sohaning rivojlanishiga xizmat qiluvchi omillarning ta'sirini o'zida aks qildirib, bu bevosita yillar bo'yicha turizm sohasining istiqbolli tarzda rivojlanayotganligi va o'zgarayotganligini aks ettiradi. Ular birlashgan holda umumlashtirilib, turizmning barcha ko'rsatkichlarini o'zida birlashtiradi va turizm salohiyatini tashkil qiladi.

2.1.3-jadval

Xorazm viloyati turizm salohiyatining 2010-2018 yillarga mo'ljallangan ko'rsatkichlari²⁹

Ko'rsatkichlar nomi	2014 y.	2015 y.	2016 y.	2017 y.	2018 y.
Turistik firma soni, dona	16	17	20	22	33
Jami xizmat ko'rsatilgan, kishi	114416	116760	124367	124437	124558
Ichki turizm	77268	83199	87673	825968	1338809
Mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni, dona	49	53	44	58	69
Jami joylashtirilganlar, kishi	64527	61596	72005	99286	123210

Mazkur jadvalga asosan, 2010 yilda faoliyat yuritgan turistik firmalarning soni 2 ta bo'lib, bu ko'rsatkich 2018 yilda 33 taga etgan. Ammo, mazkur ko'rsatkich infratuzilma sohasidagi muammolarni to'liq hal qilinishi orqali 50 taga etishi lozim edi. 2018 yilda 124558 nafar kishiga xizmat ko'rsatilgan. Bu ko'rsatkich sifatli xizmat ko'rsatish tizimiga to'liq amal qilinmasligi natijasida 200000 nafar kishiga yetmagan.

Ichki turizm ko'rsatkichi turistlarni qabul qilish salohiyatining 1500000 nafar atrofida bo'lishini hisobga olib, undan past bo'lgan 1338809 nafar kishini tashkil etgan. Mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 2010 yilda 26 ga teng bo'lgan bo'lsa, 2018 yilda 69 taga etgan. Bu ko'rsatkichni investitsiya sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish natijasida 80 taga yetkazish lozim.

²⁹ Manba: Xorazm viloyati Turizmni rivojlantirish departamentining ma'lumotlari.

Shuningdek, mehmonxonalarga jami joylashtirilganlar soni 2018 yilda 123210 nafar kishini tashkil etib, 200000 nafarga joylarning to'lish ko'rsatkichlarini hisobga olganda yetishi lozim.

Ushbu ma'lumotlar Xorazm viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish, viloyatga xorijiy va mahalliy sayyohlarni ko'proq jalb qilish, turizm sohasida ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va ko'lamini yanada oshirish, soha uchun malakali kadrlar tayyorlash, sayyohlar xavfsizligini ta'minlash bo'yicha Xorazm viloyati turizmni rivojlantirish departamenti va viloyat hokimligi hamda bir qator idora, tashkilotlar bilan hamkorlikda 2018 yilda bir qator ishlarning sust ravishda amalga oshirilganligini tasdiqlaydi. Mazkur jihatlar Xorazm viloyatida turizm salohiyatini oshirish holatini to'liq aks qildiradi va kelajakda ulardan samarali foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

2.2.Mintaqada turizm salohiyatini oshirish yo'nalishlari va bosqichlari

Ma'lumki, Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan turizm salohiyatini oshirish jarayoni quyidagi yo'nalishlarda bajariladi:

- transport tarmoqlarini jadal rivojlantirish. Buning uchun Urganch shahridagi aeroportdan Xiva shahriga marshrutli avtobuslarning yo'lga qo'yilmaganligi, keladigan turistlarning transport vositalari haqida juda past saviyadagi bilimga egaligi, taksi xizmatlarining o'z vaqtida ishlamasligi, ularning hujjatlaridagi kamchiliklarning borligi, yo'l avariya hodisalarining kuzatilish xavfining yuqoriligi, transport vositalari egasi yoki haydovchilarining turistik obyektlarga turistlarni olib borishda turli sustkashliklarning kuzatilishi, qisqa masofali suv transportining yo'lga qo'yilmaganligi kabi muammolarni hal qilish lozim.

- joylashtirish vositalarining sifati va samaradorligini oshirish. Buning uchun viloyatda faoliyat yuritayotgan mehmonxonalarning to'liq mavsumda ishlamasligi, xizmatlar sifatining yuqori emasligi, yulduzlarga mos tasniflashtirish tizimining mos kelmasligi, mehmonxonalardagi ichki muammolarning bo'lib turishi, turistlarga xizmatlarning o'z vaqtida ko'rsatilmay qolishi, milliy turistlarga milliy madaniyat haqida etarli bilim va ma'lumot berilmasligi, xona narxlarining qimmatligi va

xizmatlarga monand bo'lmashligi, kommunal xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq yuzaga keladigan muammolarni vaqtida bartaraf qilish maqsadga muvofiq.

- ovqatlantirish sohasining samaradorligi va ta'sirini kuchaytirish. Buning uchun turistlarga turistik markaz hisoblangan Xiva shahrida milliy oshxonalarining mavjud emasligi, ularning didi va hohishiga mos bo'lmagan taomlarni taqdim qilishi va xizmat ko'rsatmasligi, gastronomik turistlar uchun tanlovlarning tashkil qilinmaganligi, turistlar uchun taom miqdorining portsiyalarga hisoblangan holda juda kamligi, restoranlarning nomiga mos bo'lmagan ravishda oshxona xizmatlarini ko'rsatishi kabi masalalar hal qilinishi lozim.

- sayr-tomosha va ko'ngilochar obyektlar faoliyatini takomillashtirish. Bu maqsadni amalga oshirishda sayr-tomosha joylarining to'liq ishlamasligi, tozalikka rioya qilinmasligi, ko'zda tutilmagan va ko'zlanmagan harakatlarning o'tkazilishi, turli zamonaviy sport o'yin turlarining yo'qligi, viloyatga xos suviner mahsulotlarning kam sotilishi va ularning boshqa O'zbekiston hududlarida ishlab chiqilib, olib kelgan holda qimmat narxlarda sotilishi, turistik obyektlarning binosidagi kuzatilayotgan nosozliklar kabi muammolar bataraf qilinishi kerak.

Olib borilgan tadqiqotlar to'sqinlik qiluvchi quyidagi bir qator muammolarning mavjudligini ko'rsatmoqda:

- viloyatda faoliyat ko'rsatuvchi gidlar xorijiy tillardan asosan ingliz tilini yaxshi egallaganlar. Ammo, viloyatga tashrif buyuruvchi Germaniya, Frantsiya, Ispaniya, Yaponiya, Xitoy va Koreyadan turistlar o'zlarining tillarida xizmat ko'rsatilishini afzal ko'rmoqdalar.

- Xiva shahridagi ayrim tarixiy-madaniy turistik obyektlarning mahalliy aholining xususiy mulki hududida joylashib qolganligi ushbu obyektlarni xorijiy turistlar e'tiboriga havola etish imkoniyati cheklab qo'ymoqda;

- mahalliy turoperatorlarning xalqaro turistik yarmarkalarda o'zining turmaxsuloti bilan ishtirok etishi juda sust bo'lmoqda;

- turistik mavsum davrida viloyatda zamonaviy mikroavtobuslarning yetishmasligi, aksincha mavjudlari ham respublikaning boshqa turistik mintaqalariga

xizmat ko'rsatish uchun jo'nab ketishi mahaliy turoperatorlarning turpaketlarni ishlab chiqish va realizatsiya qilishda o'ziga nisbatan ishonchsizlik tug'dirmoqda.

- Ko'hna Urganch qo'shni Turkmaniston Respublikasi hududida joylashgan bo'lib, viloyatga tashrif buyurayotgan turistlarning bir qismi ushbu tarixiy majmuani ko'rish istagini bildirmoqda;

- turizm yo'nalishini bitkazayotgan yosh kadrlarda turizm sohasida tajribaning etishmasligi sohani rivojlantirish imkoniyatini cheklab qo'ymoqda. Shu bilan birga, Xorazm viloyati turizmi sohasida turizm bozorini shakllantirish borasida bir qancha muammolarning mavjudligi bilan ajralib turadi:

- viloyatda ishlab chiqilayotgan turistik mahsulotlarning reklamasi ichki va xalqaro turizmga talab darajasida emas;

- turmahsulotni ishlab chiqarish va sotish jarayonlari talab darajasida tashkil qilinmagan, turistik mahsulotni ishlab chiqaruvchi mutaxassis va maxsus tashkilotlar yetarli darajada ko'p emas;

- viloyat turizmida turistlarga aniq ishlab chiqilgan va litsenziyalangan turlarning kamligi, ularning reklamasi talab darajasida emasligi va turizm sohasida xizmat turlari ham yetarli emasligi;

- xalqaro turistlarga transport xizmatlarini tashkil qilish yetarli emas va gid-yo'l boshlovchi xizmatlari zamonaviy talablarga javob bermaydi va boshqalar.

Mazkur muammolarning asosiy echimi sifatida Xorazm viloyati turizmini 2024 yilgacha bo'lgan davrda konsepsiyasini ishlab chiqish hamda maqsad, vazifalarning amalga oshirilishi orqali mamlakatga keladigan xorijiy turistlar oqimi oshadi. Shu boisdan ham, Xorazm viloyatida turizm salohiyatini oshirish yo'nalishlari quyidagi chora-tadbirlardan iborat bo'lishi lozim:

- turizmning kelajakda rivojlanishiga xizmat qiladigan yangi dastur va rejalalarni ishlab chiqish;

- turizm sohasida malakali kadrlarni tayyorlash hamda ularni oliy o'quv yurtlari va malaka oshirish markazlarida amalga oshirish;

- keladigan turistlarning xavfsizligini to'liq ta'minlashga erishish;

- Xiva shahrida milliy turistik mahsulotlarning sotilishini yo'lga qo'yish;

- turoperator va turagentlar sonini ko'paytirish hamda ularning turli xalqaro ko'rgazmalarda qatnashishlarini ta'minlash;

- ovqatlanish korxonalarining sonini ko'paytirish va ularning infratuzilmasini yanada takomillashtirish;

- turizm va transport infratuzilmasi sohasidagi muammolarni bartaraf qilish;

- Xorazm viloyatining turistik salohiyatini keng yoritib beruvchi videolavhalar tayyorlash;

- suvenir mahsulotlar reklamasini yo'lga qo'yish va ularning sotilishini ta'minlash;

- Xorazm milliy taomlarini tayyorlash usullari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va ular asosida bukletlar jamlanmasini yaratish, ushbu ma'lumotlarni internet veb-sahifalariga joylashtirish;

- turizmning ilmiy va tarixiy jihatlarini aks ettirishga qaratilgan elektron dastur yaratish;

- joylarda va ommaviy axborot vositalarida turizm sohasi haqida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish va tadbirlarni o'tkazish.

- "Xiva - Xorazmning qadimiy poytaxti" nomli brend yaratish va bu brend ostida sohani rivojlantirishga qaratilgan turli tanlovlarni tashkil etish;

- turistik rasmiyatchilik sohasidagi muammolarning to'liq hal qilishiniga erishish va h.k.

Darhaqiqat, mintaqaning turizm salohiyatini targ'ib qilish Xorazm viloyatida qabul qilingan dasturga kiritilgan bo'lib, u quyidagi bandlardan tarkib topgan:

- Xorazm viloyatining turizm salohiyatini xorijiy telekanallarda, jumladan Rossiyaning markaziy telekanallarida keng reklama qilish maqsadida Xorazm viloyati va Xiva shahri haqida videolavhalar tayyorlash;

- Xorazm viloyati ramzi tushirilgan reklama futbolkalari va boshqa tekstil mahsulotlarini, shuningdek, taqinchoqlarni tayyorlash, milliy buyumlar va esdalik sovg'alar ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yish orqali Xorazm viloyati va Xiva shahrining brendlarni yanada targ'ib qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;

- “Xorazm madaniyati kunlari”, “Xorazm vohasining xalq raqslari”, Qo’g’irchoq festivali, Xorazm qovunlari va boshqa festivallarni respublika hududlaridan va xorijiy mamlakatlardan mehmonlarni taklif qilgan holda tashkil etish;

- Pahlavon Mahmud xotirasiga bag’ishlab har yili xalqaro kurash, sambo va dzyudo musobaqalarini tashkil etish va musobaqalar doirasida Xorazm Ma’mun Akademiyasi binosida seminar-treninglar o’tkazish;

- Xorazm viloyati va Xiva shahrining diqqatga sazovor joylari haqida batafsil ma’lumotlarni mashhur elektron xaritalarda joylashtirish, ommabop ijtimoiy tarmoqlari va butunjahon Internet tarmog’ida hududning turizm salohiyatini targ’ib qilish;

- matematika sohasida so’nggi erishilgan yutuqlar va tendentsiyalarni muhokama qilish hamda bu sohadagi eng yaxshi ilmiy ish uchun O’zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan belgilangan tartibda kelishib taqdirlanadigan Al-Xorazmiy nomidagi mukofotni topshirish maqsadida Xiva shahrida har ikki yilda bir marotaba etakchi jahon va O’zbekiston olimlari ishtirokida xalqaro matematika anjumanini o’tkazish yuzasidan taklif kiritish;

- xorijiy mamlakatlarda o’tkaziladigan xalqaro ko’rgazma va yarmarkalar doirasida tashkil etiladigan yagona “O’zbekiston” milliy stendida Xorazm viloyati hunarmand va ustalari, turizm tashkilotlari, shuningdek, mehmonxonalarining faol ishtirok etishini ta’minlash;

- xorijiy ommaviy axborot vositalari va turoperatorlari vakillari uchun hududga davriy ravishda tanishtiruv turlarini tashkil etish;

- Xorazm viloyatining turizm salohiyati to’g’risidagi ma’lumotlarni “Uzbekistan.travel” portali orqali tizimli ravishda berib borish;

- “Ipak yo’li” yo’nalishidagi eng taniqli turizm obyektlaridan biri sifatida Xiva shahrini namoyon qilishga hissa qo’shuvchi xalqaro miqyosdagi tadbirlarni Xiva shahrida o’tkazish masalasini YuNVTO va boshqa xalqaro hamkorlar bilan birgalikda ko’rib chiqish;


- har yili o'tkaziladigan xalqaro turizm ko'rgazma va yarmarkalarida, xususan, xalqaro o'zbek turizm ko'rgazmasi va Toshkent xalqaro turizm yarmarkasida hududning turizm salohiyatini keng taqdim qilish;

- Samarqand viloyati hamda Toshkent shahridan, shuningdek, xorijiy mamlakatlardan yirik turizm subyektlarini jalb qilgan holda Xorazm viloyatida turizm tashkilotlarini tashkil etish.

Biroq, respublikamiz mintaqalarida turizm sohasini rivojlantirishning asosiy bosqichlari etib quyidagilar belgilangan edi:

- 2019-2020 yillarda – turizmni rivojlantirishning mustahkam qonunchilik asosini yaratish, infrastrukturani modernizatsiya qilish va mamlakat brendini ilgari surish bo'yicha institutsional islohotlarni o'tkazish;

- 2021-2025 yillarda – mamlakat iqtisodiyotida turizm sanoati ulushini oshirish. Xorazm viloyatining turizm salohiyatini oshirish uchun quyidagi rasmda keltirilgan tizim va mexanizmlar zarur bo'lib, ular o'z ichiga bir qator kelajakda tashkil qilinadigan quyidagi yangi turizm turlarini birlashtiradi:



2.2.1-rasm. Xorazm viloyati turizm salohiyatini oshirish tizimi³⁰

³⁰ Manba: www.xorazm.uz

Shuningdek, turli darajalarda olib borilgan tahlillar natijasida Xorazm viloyatida turizm salohiyatining rivojlanish bosqichlari va tendentsiyalari quyidagi guruhlarga bo'lindi:

- **birinchi bosqich (1992-1995 yillar).** Bu bosqichda turizm sohasida yangi boshqaruv tizimini shakllantirish, turistlik biznesni yuritishga yordamlashadigan qo'shimcha biznes turlarini yaratish, sohaga xizmat qiladigan bank, audit, maslahat xizmatlarini tashkil etish, viloyatda turizm tarmog'ining mintaqaviy bo'linmalarini tuzish, xalqaro miqyosda turizm mahsulotini reklama qilish, xususiylashtirilgan turistlik korxonalarini litsenziyalashtirish kabi masalalarga alohida e'tibor berildi.

- **ikkinchi bosqich (1995-1999 yillar).** Bu bosqichda kiritilgan o'zgarishlar turizm sohasini qabul qilish tizimini jadallik bilan rivojlantirdi. 1995 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Buyuk Ipak yulini qayta tiklash va xalqaro turizmni rivojlantirish" to'g'risidagi Farmoni asosida Buyuk Ipak yulida turistik mahsulotini tiklash strategik ahamiyatga ega bo'ldi. Bu turizmi sohasidagi islohotlarning ikkinchi bosqichini boshlab berdi.

- **uchinchi bosqich (1999-2005 yillar).** Turizm sohasidagi islohotlarning mazkur bosqichida 1999 yil 15 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2005 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston turizmini rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Buning asosida turizm sohasidagi bozor munosabatlari uzil-kesil yo'lga qo'yildi hamda dunyo bozori bo'yicha raqobatbardosh turistik mahsulot yaratila boshlandi, turizm tizimini boshqarishning markazlashtirilishiga chek qo'yildi. Hamda, 2003 yilda Urganch aeroporti Urganch xalqaro aeroportiga aylantirildi.

- **to'rtinchi bosqich (2005-2016 yillar).** Turizm sohasidagi islohotlarning mazkur bosqichida xususiy turistik tashkilotlar assotsiatsiyasi va boshqa turistik assotsiatsiyalar tashkil qilinib, ular bilan turistik korxonalar o'rtasida iqtisodiy aloqalar amalga oshirildi. Sohadagi islohotlar chuqurlashib, 2013 yil 20 martda "Xorazm viloyatida 2013-2015 yillarda turizmni rivojlantirish Dasturi" qabul qilindi.

- **beshinchi bosqich (2016 yildan boshlab).** Mazkur bosqichda turizm sohasida islohotlar tubdan takomillashib, respublikamizda yangidan turistik xizmatlarning

samaradorligini oshirishga qaratilgan qo'mita tashkil qilindi, turizmni jadal rivojlantirish masalalari hal qilindi, hamda eng asosiysi Xorazm viloyati va Xiva shahrida turizm salohiyatini oshirishga qaratilgan 5 yilga mo'ljallangan dastur qabul qilindi.

Xulosa shuki, keyingi yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida viloyatning turistik salohiyati sezilarli darajada oshishiga erishiladi. Shu bilan birga, yuqorda keltirgan dolzarb masalalarning o'z echimini topishi istiqbolda viloyat turistik salohiyati hamda binobarin xorijiy turistlar oqimining kengayishiga zamin yaratadi.

2.3. Mintaqada turizm salohiyatini oshirish samaradorligini oshirish istiqbollari

Mintaqada turizm salohiyatini oshirishda sohaning samaradorligini oshirish lozim. Bular O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va uning Xorazm viloyati turizmni rivojlantirish departamenti tomonidan amalga oshiriladi. Respublikada qo'mitaning tashkil qilinganligi bevosita turizm sohasidagi o'sish va yangi yutuq bo'lib hisoblanadi. Qo'mita tomonidan turizmning rivojlanish dinamikasi tahlil va prognoz qilib boriladi.

Xususan, O'zbekiston 2026 yilga kelib mamlakatga tashrif buyuruvchi xorijlik turistlar soni 9 mln. kishiga etadi. Bu O'zbekiston Respublikami Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizmni tezkor rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan tasdiqlangan 2019-2025 yillarda Turizmni rivojlantirish konsepsiyasida ko'zda tutilgan. Mazkur hujjatda qayd etilishicha, 2010-2017 yillar davomida turizm xizmatlari eksporti ikki baravarga oshgan va 2017 yilda 546,9 mln., 2018 yilda esa 1041 mln. dollarini tashkil etgan. 2016 yilgacha xorijlik tashrif buyuruvchilarning o'rtacha yillik o'sishi 8 foizni, 2017 yilda 7 foizni tashkil etgan va 2,69 mln. nafar kishidan oshgan. 2018 yil natijalariga ko'ra, respublikaga 5,3 mln. nafarga yaqin xorijlik turist tashrif buyurgan.

Ikkinchi yo'nalishda mamlakat yalpi ichki mahsulotida turizm ulushini 5 foizgacha etkazish hamda 9 mln. kishidan ortiq, jumladan uzoq xorijdan 2 mln. nafar

turistni jalb etish maqsad qilingan. 2025 yilda turizm eksportining o'sishini 951 mln.dan 2,2 mlrd. dollarga yetkazish rejalashtirilgan.

Shular bilan birga, Xorazm viloyati turistik salohiyatining istiqboli uning oshirishni belgilovchi to'laqonli va tizimli majmuaviy katalogni yaratish bilan namoyon bo'ladi. Natijada, viloyat turistik salohiyatining xalqaro va milliy darajalardagi axborotlilik darajasi oshadi. Ya'ni, turizm salohiyatining barcha unsurlari va resurslari yagona kitob katalogida jamlanadi. Tashrif buyuruvchilar viloyat turizmi haqidagi to'liq va batafsil ma'lumotlarga tez va qulay tarzda ega bo'ladilar.

Xorazm viloyati Turizmni rivojlantirish departamenti tomonidan Xorazm viloyati hokimining turizmni rivojlantirish masalalari bo'yicha o'rinbosari boshchiligida 40 nafarga yaqin xodimlari ishtirokida turizmni rivojlantirish va samaradorligini oshirishning yangi strategiyasi ishlab chiqildi. Mazkur tashkilotning tarkibida turizm sohasi loyihalariga investitsiyalarni jalb qilish va istiqbolli hududlarni rivojlantirish bo'limi, turizm faoliyatini litsenziyalashtirish bo'limi, yangi turizm yo'nalishlari, mahsulotlari va marshrutlarni ishlab chiqish bo'limi, madaniy meros va turizm infratuzilma obyektlarini obodonlashtirish, tozalikka rioya qilish va ularni saqlash bo'yicha vakolatli organlar bilan ishlash bo'limi, xalqaro aloqalar bo'limi, turizm sohasini rivojlantirish, hududiy dasturlarni ishlab chiqish va monitoring qilish sho'bbasi, turizm mahsulotlarini reklama va targ'ibot qilish sho'bbasi, madaniy ko'ngilochar tadbirlarni tashkil qilish sho'bbasi, turizm axborot markazi faoliyat yuritmoqdalar.

Shuningdek, turizm sohasiga davlat tomonidan yuqori e'tiborning kuchayib borishi natijasida sohada malakali kadrlar tayyorlash miqdor va sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarildi. Ushbu sohada kadrlar, xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni yuqori darajada tashkil etish hamda tarmoq turizm fanlarini rivojlantirishga ko'maklashish O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish Davlat qo'mitasi tomonidan tashkil qilinadi. Qo'mitaning o'quv ilmiy konsalting markazi turizm sohasida kadrlarni malakasini oshirish va qayta tayyorlash markaziga

aylantirildi. Shu bois, turizm sohasidagi bo'lajak kadrlarni sifat va samardorlik jihatdan o'stirishga erishilmoqda.

Turizm sohasida kadrlar tayyorlash ta'lim jarayonini boshqarishning ta'sirchan usuli bo'lib, u pedagogik muloqot, ishonirish, asoslash va muntazam nazorat kabi tamoyillar bilan namoyon bo'ladi. Natijada, har bir sohada tayyorlanadigan kadrlar yuqoridagi ijobiy fazilatlarni o'zida mujassamlashtiruvchi sifatida har bir sohaning kadrlari qo'yilgan muhim talablar asosida tayyorlanadi.

Turizm sohasining korxonalari aktsiyadorlik-tijorat banklari tomonidan moliyalashtirilmoqda. Asosan, chakana bank xizmatlari bugungi kunda banklar uchun foydali biznes turlaridan biri hisoblanib, moliyaviy jihatiga ko'ra jamg'arma, kreditlash, hisob va kassa operatsiyalari, valyuta ayirboshlash, jismoniy shaxslar uchun qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiradi.

Mazkur bank xizmatlari turizm korxonalariga etarli darajada ko'rsatilmoqda. 2018 yilda turizm salohiyati va infratuzilmasini yanada rivojlantirish maqsadida qiymati dastur doirasida jami qiymati 123,7 mlrd. so'm miqdoridagi investitsiyalar o'zlashtirilishi hisobiga 52 ta loyihalar amalga oshirildi hamda 608 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Bunda tadbirkorlarning o'z mablag'lari 69,8 mlrd. so'm va bank krediti 53,9 mlrd. so'mdan iborat.

Yangi ish boshlayotgan turizm soha korxonalariga konsalting xizmatlari ko'rsatadigan tashkilotlar mavjud bo'lib, ularning qatoriga viloyat turizmni rivojlantirish davlat departamenti va Savdo-sanoat palatasi Xorazm viloyati boshqarmasi kiradi. Mazkur tashkilotning salohiyati asosan yangi turizm sohasida ish boshlamoqchi bo'lgan tadbirkorlarga konsalting xizmatlarini ko'rsatishdan iborat. Ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifati yetarli darajada bo'lib, tadbirkorlarni qoniqtirmoqda.

Turizm soha vakillarini huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida turistik politsiya xizmati ish olib bormoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 23 noyabrdagi "Buxoro, Samarkand, Xiva va Shahrisabz shaharlarida xavfsiz turizmni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 939-sonli qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida Xorazm viloyati hokimining 2017 yil 28

noyabrdagi 882k-sonli karori qabul qilindi. Mazkur qaror bo'yicha Xiva shahrida xavfsiz turizmni ta'minlash bo'yicha konsepsiyani ijrosini ta'minlash yuzasidan ishchi guruh tarkibi tasdiqlandi.

Hozirgi kunda ushbu konsepsiya ijrosini ta'minlash borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Xorazm viloyati ichki ishlar boshqarmasida xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi tashkil qilindi. Ushbu boshqarmaga xorijiy tillarda so'zlasha oladigan xodimlar ishga olindi. Mazkur boshqarma faoliyatini samarali tashkil qilish maqsadida xodimlarga zarur shart-sharoitlar yaratildi. Boshqarma xodimlari bilan Urganch Davlat universiteti qoshida tasdiqlangan o'quv mashg'ulotlari grafigi asosida 144 soatlik o'quv kursi o'tkazildi.

Shuningdek, xavfsiz turizm konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha Ishchi guruh raisining 2017 yil 31 dekabrdagi "2017-2018 yillarda Xiva shahrida xavfsiz turizm konsepsiyasini bosqichma-bosqich amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xarita"si tasdiqlangan bo'lib, hozirda Ichki ishlar vazirligi va Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligining mutaxassislar tomonidan "Xavfsiz hudud" loyihasini amalga oshirish doirasida "Xavfsiz turizm" konsepsiyasiga asosan viloyatda videokuzatuv kameralari va boshqa texnika vositalari joylashtirilishi boshlandi. Tasdiqlangan "Yo'l xarita"siga asosan Xiva shahri hududi bo'yicha qo'shimcha ravishda jamoat xavfsizligi va yong'in xavfsizligini ta'minlash yuzasidan o'rganishlar olib borildi.

Tashkilotlarning yordami asosida yaratilgan loyiha xalqaro tashkilotlar, elchixona va konsulliklar, xorijiy va milliy turistik tashkilotlar, mehmonxonalar, yuridik hamda jismoniy shaxslar tomonidan keng miqyosda qo'llaniladi. Hamda loyihani amaliyotga tadbiiq qilish natijasida xalqaro va milliy darajada Xorazm viloyatining turizm salohiyati kompleks tarzda targ'ib qilinadi hamda turistik oqimni 2-2,5 barobarga oshirishga olib keladi.

Shu bilan birga, mintaqada turizm salohiyatini oshirishga yaratilgan xalqaro loyihalar hissa qo'shadi hamda ularning asosiy yo'nalishlari quyidagilarda keltirilgan:

- **"Calligraphy art of ancient Khiva" mobil ilovasini yaratish.** Mazkur loyiha

asosida “Ichan-qal’a” hududida joylashgan me’moriy obidalardagi hattotlik san’ati asosida bitilgan epigraflarni o’qish va yaxshi tushunishga imkon beruvchi mobil ilova yaratiladi. Mobil ilova 7 tilda, ya’ni ingliz, rus, nemis, frantsuz, ispan, arab va xitoy tillarida yaratiladi.

Loyihaning asosiy maqsadi - mahalliy va xorijiy turistlarga qadimiy obidalarda bitilgan yozuvlarning ma’no-mazmunini tushunish va bu orqali ularning qadimiy shahar Xivaga bo’lgan qiziqishlarini yanada kuchaytirishga imkoniyat yaratishdir. Chunki, bugungi kunda uzoq yillik tarixga ega bo’lgan turistlarning e’tiborini doimiy ravishda o’ziga qaratib kelayotgan xattotlik san’atining nomoddiy madaniy merosini asrash va ommalashtirishga qaratilgan tizimli va zamonaviy axborot texnologiyalari asosidagi ishlanmalari mavjud emas.

Shu boisdan ham, mazkur loyiha o’z ichiga mazkur nomoddiy madaniy merosni keng targ’ib qilish va turistlarga yanada yangi qulayliklarni yaratish kabilarni oladi. Natijada, viloyatga ko’proq xorijiy turistlar jalb qilinadi va kelajakda Xorazm viloyatining turistik jozibadorligini yanada oshirishga ko’maklashadi.

- **“Ichan-qal’a” audio gid mobil ilovasini yaratish.** Loyihaning asosiy maqsadi Xiva shahridagi “Ichan-qal’a” qo’riqxonasining tarixiy obidalarini bilan tanishish uchun xorijdan keladigan turistlarga mo’ljallangan audio-gid mobil ilovasini yaratishdir.

Ma’lumki, audio-gid - mustaqil ravishda turistik obyektlar bilan tanishmoqchi bo’lganlar uchun fonogramma bo’lib, bugungi kunda Luvr, Buyuk Britaniya va Metropoliten san’ati muzeylari o’z eksponatlarini tanishtirish uchun audio-gidlardan foydalanmoqdalar. Mazkur mobil ilova “Ichan-qal’a” ichidagi me’moriy yodgorliklar bilan 6 xil tilda tanishish imkoniyatini yaratadi va ushbu tillarda yodgorlik to’g’risida muhim ma’lumotlarni topib olish mumkin.

Ilovani internet tarmog’iga ulanmasdan turib foydalanish imkoniyati mavjud bo’lib, ayniqsa bu tashrif buyuruvchilar uchun juda qulay. Hamda ilova Android va IOS platformalari uchun yaratiladi va buning uchun maxsus audio-gid moslamasidan ham foydalanish mumkin. Mazkur loyiha natijasida osonlik bilan har xil tillarda “Ichan-qal’a” qo’riqxonasi ichidagi yodgorliklar to’g’risida ma’lumot olish,

individual tarzda ekskursiya qilishni xohlagan turistlarni jalb qilish va xorij auditoriyasiga tarixiy yodgorliklarni tanishtirish orqali turistik manzilning imijini yaratish imkoniyati yaratiladi.

- **“Ichan-qal’a” arkidagi arxeologik yodgorlikni konservatsiyalash.** Mazkur loyihaning asosini Xiva shahri “Ichan-qal’a”ning xon qarorgohi bo’lgan Ko’hna Ark hududida saqlanib qolgan noyob arxeologik qazilma qoldiqlarining konservatsiyalash ishlarini olib borish tashkil etadi. Arxeologik obyektning ustiga qalin shisha qoplamasini o’rnatish tarixiy obyektning asl va umumiy holatda tomosha qilish imkonini berishi bilan birgalikda, turli xil salbiy tabiiy ta’sirlardan himoya qilish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Loyihani amalga oshirishning ilk bosqichida tadqiqotlar natijasida ochilgan Ko’hna arkdagi arxeologik yodgorlikning hududlari chegaralanib, atroflari baland bo’lmagan beton devor bilan o’raladi. Keyingi bosqichda esa butun yodgorlikning hududi shisha konstruktsiya-bostirmalar bilan yopiladi. Mazkur loyihaning amaliyotga joriy etilishi “Ichan-Qal’a” hududida arxeologik obyektlarning ko’payishi, barqaror saqlanishi hamda xorijiy turistlarning xon qarorgohi tarixi haqidagi tasavvurlari va qiziqishining ortishiga sabab bo’ladi.

Shular bilan birga, Xiva shahri turizm salohiyatini oshirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- Xiva shahrining turizm infratuzilmasini jahon tajribasi darajasida rivojlantirish;
- shahardagi mavjud turizm yo’nalishlari va xizmatlarini reklama qilish ishlarini kuchaytirish;

- shaharning turizm salohiyatini keng targ’ib qilish va ularning sifatli reklamalarni ko’rsatish asosida bajarilishini ta’minlash;

- yuqori naf keltiradigan turistik marshrutlarni tanlashda turistik resurslardan samarali foydalanish va turizmning yangi turlarini tadbiq qilish.

Biroq, viloyatda ichki turizmni rivojlantirish, sayyohlik mavsumi sust bo’lgan davrlarda ham viloyatda faoliyat yuritayotgan joylashtirish vositalarining bandligini ta’minlash, shu orqali viloyatdagi turizmning mavsumiylik faktori ta’sirini bartaraf etish bo’yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O’zbekiston Yoshlar

Ittifoqi, Kasaba uyushmalari federatsiyasi, Xotin-qizlar qo'mitasi va "Mahalla" hayriya jamoat fondi, "Nuroni" jamg'armasi bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan bo'lib, ushbu tashkilotlar orqali Respublikamiz aholisining viloyatimizga, viloyatimiz aholisining esa o'z navbatida Respublikasmizning boshqa hududlariga sayyohatlari uyushtirib kelinmoqda.

Shuningdek, 2019 yilda turizm salohiyati va infratuzilmasini yanada rivojlantirish maqsadida qiymati Dastur doirasida jami qiymati 306,6 mlrd. so'm miqdoridagi mahalliy investitsiyalar va 39,0 mln. AQSh dollari miqdoridagi to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilishi hisobiga 70 ta loyihalarning amalga oshirilishi hamda 1351 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi rejalashtirilgan. Buning tadbirkorlarning o'z mablag'lari 196,0 mlrd.so'm va bank krediti 110,6 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Shundan quyidagicha taqsimlash belgilab olingan:

- joylashtirish vositalari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha - mehmonxonalar, kempinglar va oilaviy mehmon uylarini tashkil qilish yo'nalishi bo'yicha 80,6 mlrd.so'mlik mablag'larni o'zlashtirish hisobiga 53 ta loyiha, shundan 47 ta mehmonxona, 4 ta oilaviy uy mehmonxona va 2 ta kempinglarni barpo qilish;

- transport xizmati ko'rsatish faoliyatini rivojlantirish bo'yicha - 5,5 mlrd. so'mlik mablag'lar o'zlashtirish hisobiga 7 ta loyiha, shundan zamonaviy turizm toifasidagi 9 ta avtobuslar va 6 ta mikroavtobuslarni xarid qilish;

- gastronomik turizmni rivojlantirish bo'yicha - 1,4 mlrd. so'm mablag'lar o'zlashtirish hisobiga 2 ta loyiha, shundan 2 ta fastfud kafelar faoliyatini yo'lga qo'yish;

- ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha - 3,7 mlrd. so'm mablag'lar o'zlashtirish hisobiga 4 ta loyiha, shundan 2 ta baliqchilik suv xavzasida ekoturizm obyektini va 2 ta daryo bo'yi sohil bo'yida ekoturizm obyektini tashkil etish;

- hunarmandchilik markazlari va savdo shoxobchalari tashkil etishni rivojlantirish bo'yicha - 8,8 mlrd. so'm mablag'lar o'zlashtirish hisobiga 3 ta loyiha, shundan 3 ta sayyohlar uchun savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalarini faoliyatini yo'lga qo'yish.

Bularning natijasida kelajakda turistlarning hududda qolish muddatini 2 kundan 3 kunga uzaytirish hamda sayyohlar tomonidan sarflanadigan mablag' miqdori o'rtacha 300 dollardan 400 dollargacha oshishiga erishish rejalashtirilgan.

Xorazm viloyati turizm salohiyati istiqbolda yuqori sur'atli rivojlanishga ega bo'lib, bu holatni quyida keltirilgan 2.3.1-jadvaldagi prognoz ma'lumotlari tasdiqlaydi.

2.3.1-jadval

Xorazm viloyatida turizm rivojlanishining 2010-2030 yillarda prognoz ko'rsatkichlari haqida ma'lumot³¹

Yillar	Turistik firma soni, dona	Mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni, dona	Jami joylashtirilganlar, kishi
2010	2	26	57565
2011	3	30	66593
2012	7	30	69161
2013	10	31	69720
2014	16	49	64527
2015	17	53	61596
2016	20	44	72005
2017	22	58	99286
2018	33	69	123210
2019	32	69	105811
2020	36	74	111781
2021	39	79	117751
2022	43	84	123721
2023	47	89	129691
2024	50	94	135661
2025	54	99	141631
2026	57	105	147601
2027	61	110	153571
2028	64	115	159541
2029	68	120	165511
2030	72	125	171481

Jadvalga asosan, 2030 yilga kelib turistik firmalar soni 72 taga, mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 125 taga va ularga jami joylashtiriladiganlar soni 171481 taga etadi. Jadvalda turistik ko'rsatkichlarning yillar

³¹ Xorazm viloyati Turizmni rivojlantirish departamenti ma'lumotlari va Excel dasturi.

davomida barqaror ravishda oshib borishi ko'rsatilgan bo'lib, bular turistik firmalar soni, mehmonxonalar va shunga o'xshash joylashtirish vositalarining soni hamda jami joylashtirilgan kishilar soni kabilar bilan belgilanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mintaqada turizm salohiyatini oshirish yo'nalishlari va istiqbollari uni oshirishning nazariy-uslubiy asoslari bilan belgilanadi. Bu bilan turizm salohiyatining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni, uni amalga oshirish jihatlari va ko'rinishlari hamda xorijiy mamlakatlarda turizm salohiyatini rivojlantirish tajribalari tadqiq qilinadi. Hamda Xorazm viloyati mintaqasida turizm salohiyatini oshirish uchun turizm salohiyatini oshirishning hozirgi holatini o'rganish, turizm salohiyatini oshirish yo'nalishlari va bosqichlarini izlab topish hamda turizm salohiyatini oshirishda davlat tashkilotlarining samaradorligini oshirish lozim bo'ladi.

Shu bois, mintaqada turizm salohiyatini oshirish yo'nalishlari va istiqbollari kelajakda Xorazm viloyati turizmi sohasini barqaror rivojlantirishga qaratilgan. Bu borada bir qator tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiyalash hamda diversifikatsiyalash sharoitida turistik salohiyati yuqori bo'lgan Xorazm viloyati mintaqasida asosiy istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur hududda turizmni rivojlantirish uchun hukumat tomonidan chiqarilgan qarorlar hamda dasturlar amaliyotga tadbiiq etilmoqda.

Turizm salohiyatini oshirishga qaratilgan loyihalar kelajakda Xorazm viloyatining turizm salohiyatini oshiruvchi omillardan biri bo'lib xizmat qilishi bilan birga kelajakda Xorazm viloyatida turistlar oqimining ko'payishiga, kirish turizmining milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylanishiga hamda viloyatning madaniy-tarixiy merosi va tabiiy boyliklarining keng targ'ib qilinishiga olib keladi.

Turizm infratuzilmasi turizm sohasining boshqarilishi uchun zarur bo'lgan va o'z ichiga turizm tashkilotchilari va vositachilarining faoliyatini qamrab oluvchi tarmoq sifatida viloyat turizm salohiyatini oshirishda turizm infratuzilmasini tashkil etish va boshqarish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu infratuzilmaning asosiy omillarini tashkil qiluvchi vositalar turistlarning sayohat qilish ehtiyojlarini to'la-to'kis qondiradi. Hamda mazkur infratuzilma viloyatning turizm salohiyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi va mamlakatga valyuta kirimini ta'minlaydi.

Mintaqada turistik salohiyatni yuzaga chiqarishga qaratilgan aniq turlarni ishlab chiqish va uning samaradorligini oshirish uchun ko'pincha tarixiy mavzulardagi marshrutlarni yaratish, viloyatning bioxilma-xillik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish, turli joylar, xususan tabiiy buyurtmaxona va to'qayzorlarga qiziqarli ekskursiyalarni uyushtirish hamda majmualiy marshrutlarni yaratish lozim.

Umuman olganda, turizm sohasining imkoniyatlari tufayli mintaqada yangi turizm turlari rivojlanib, keng taraqqiy qiladi. Buni samarali amalga oshirish uchun turizmini tartibga solish maqsadga muvofiq. Ya'ni, xizmat ko'rsatish korxonalarini keng rivojlantirish hamda ushbu sohalarga oilaviy tadbirkorlik subyektlari hamda bitiruvchi yoshlarni keng jalb etish lozim. Natijada, Xorazm viloyatida turizm salohiyatini oshirish maqsadida quyidagi yangi yo'nalishlar ishlab chiqilishi lozim:

- Xorazm kulolchilik markazlariga ekskursiyalarni amalga oshirish;
- gilamchilik va palas ishlab chiqish fabrikalariga sayohatni ta'minlaydigan marshrutlarini ishlab chiqish;
- milliy musiqasozlik va milliy folklor, ya'ni xorazm baxshichiligi, milliy raqs san'ati markazlariga sayohat qilish;
- metalga rasm chizish, ganchkorlik va duradgorlik ustaxonalariga safar uyushtirish;
- xalq milliy o'yinlari bo'lgan kurash, xo'roz va qo'chqor urushtirish tadbirlarini tashkil etish va ular uchun yangi marshrutlarni yaratish;
- Urganch, Xiva va tuman markazlaridagi kichik diniy ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolarga turistik-ekskursiya marshrutlarini tashkil etish.

Shular bilan birga, turizm salohiyatini oshirish maqsadida mehmonxonalarining xizmatlar sifati samaradorligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar mehmonlarning munosib yashashini ta'minlashga qaratilganligi tufayli mehmonxona xizmatlari sifatini yaxshilash iqtisodiy va ijtimoiy nuqtai-nazardan qaralishi lozim. Biroq, bunda mehmonxona xizmatlarining sifatini baholash boshqa tarmoqlardan farq qilishini inobatga olgan holda ularning turlari va o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, turli xil baholash usullari va ko'rsatkichlardan ham foydalanish lozim.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, turizm salohiyatini oshirish maqsadida mehmonxonalarda xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish lozim bo'lib, buning uchun quyidagi yo'nalishlardagi takliflarni amaliyotga keng joriy qilish lozim:

- turizmni boshqarish konsepsiyalarini keng joriy qilish va uni sifatni yaxshilashdagi samaradorligini yanada oshirish;

- turizm sohasini muvofiqlashtirishda yangi menejer lavozimini joriy qilish, ularning ish faolligini yanada kuchaytirish va ularni individual ravishda rag'batlantirib borish;

- turizm sohasining hozirgi holatini doimiy ravishda tahlil qilib borish asosida mehmonxonalar faoliyatini yaxshilash va iqtisodiy faoliyatini takomillashtirish;

- aniq belgilangan strategiya va taktika asosida sohani takomillashtirish va keng joriy qilish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr. Toshkent shahri. // www.president.uz

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevralda qabul qilingan PF-5326-sonli "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevralda qabul qilingan PF-5326-sonli "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 4 mayda qabul qilingan PQ-2953 sonli "2017-2021 yillarda Xorazm viloyati va Xiva shahrining turizm salohiyatini kompleks rivojlantirish Dasturi to'g'risida"gi Qarori.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda "2017-2021 yillarda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 fevralda qabul qilingan PQ-3509-sonli "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Vazirlar Mahkamasining "Mamlakatimizni 2016 yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlarini har tomonlama tahlil qilish hamda respublika hukumatining 2017 yil uchun iqtisodiy va ijtimoiy dasturining eng muhim yo'nalishlari va ustuvor vazifalarini belgilashga bag'ishlangan kengaytirilgan majlisi"dagi ma'ruzasi G'G' Xalq so'zi, 2017 yil 16 yanvar.

8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 29 b.

9. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. – 47 b.

10. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 485 b.
11. David Weaver (Author), Laura Lawton. Tourism Management/ 1th ed. USA, Willey 2013.
12. Smits, R., & Shousha, N. (1998). Egypt's Red Sea Resorts...trends and Opportunities ... Retrieved from http://www.hotel-online.com/Trends/Andersen/1998_Egypt's Resorsts.html
13. Wahab, S. Tourism development in Egypt: Competitive strategies and implications. In C. Cooper & S. Wanhill (Eds.), Tourism development: Environmental and community issues. London: John Wiley & Sons, 1997.
14. Mohammed I. Eraqi. Ecotourism resources management as a way for sustainable tourism development in Egypt // Tourism Analysis, 2007, Vol.12, pp. 3
15. "Tourism Policy in Turkey's Development Plans" Yaşar Akça International Journal of Business and Social Science Vol. 8, No. 1; January 2017
16. "Role of public-private partnership for the development of tourism sector" Omer Celik minister of culture and tourism in turkey 2014
17. TurkStat, Central Bank, Ministry of Culture and Tourism
18. Altan Ş., 2006; Türkiye'de Eko-Turizm Uygulamaları ve Ekonomiye Katkıları, Niğde Üniversitesi SBE, İktisat ABD, Yüksek Lisans Tezi.
19. Курс лекций по предмету: Инвестиционная политика в международном туризме (Курс подготовили: Г. Г. Назарова и другие), Т., 2000 г.
20. Mamatqulov X.M., Bektemirov A.B., Norchaev A.N. Xalqaro turizm. Darslik. – T., 2009. - 9 b.
21. Professorlar: M.Q.Pardayev va H.N.Musayevlar tahriri ostida. Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohalarini rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari. Monografiya. - T., 2008. - 87 b.
22. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Safarov B.Sh., Tursunova G.R. Turizm asoslari. Darslik. –T., 2014. - 225-234 b.
23. Tuxliyev I.S., Hayitboyev R., Ibodullayev N.E., Amriddinova R.S. Turizm asoslari: O'quv qo'llanma – S.: SamISI, 2010. - 60-61 b.

24. Tuxliyev I.S., Qudratov G'.X., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2010. -157 b.

25. Hayitboyev R., Matyaqubov U. Ekologik turizm. - Samarqand: SamISI, - 2010. - 60 b.

26. Рўзметов Б., Матякубов У., Худойберганов Д. Хоразм вилоятида туризмни ривожлантириш истиқболлари. В сб: Актуальные проблемы туризма - 2009” Сборник научных трудов. Выпуск №1. -Т.: «ДП Патент -Пресс», 2009. - 138 с.

27. Matyakubov U.R. Ekologik vaziyatni inobatga olib turizm samaradorligini oshirish yo'nalishlari va istiqbollari (Xorazm viloyati misolida). // Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2011.

28. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi ma'lumotlari

29. Xorazm viloyati Turizmni rivojlantirish departamenti ma'lumotlari

30. www.wttc.org

31. <http://uza.uz/oz/tourism/dam-olish-dunesi-khalaro-saielik-krqazmasi...>

32. www.uzbektourism.uz

33. www.xorazm.uz

34. www.ziyonet.uz